

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI


PEDAGOGIKA FAKULTETI

H. HAMRAQULOVA

O`. Asqarova

Mutaxassislikka kirish

(Ma`ruzalar matni)



Namangan – 2005 y.

Mazkur ma`ruzalar matni 5140800-Pedagogika-psixologiya yo`nalishi 1-kurs talabalari uchun mo`ljallangan bo`lib, undan talabalar hamda o`qituvchilar foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchi: H.Hamraqulova

Mazkur ma`ruzalar matni Pedagogika fakulteti ilmiy-uslubiy Kengashining 2005 yil _____dagi _____-sonli qarori bilan foydalanishga tavsiya etilgan.

Diplomga ega bo'lish-bu hali tom ma'nodagi ziyoli emas. Ziyoli odam o'z tafakkur saviyasi, pok yuragi, ichki madaniyati bilan mutlaqo bo'lakcha inson bo'ladi.

Islom KARIMOV.

So'zboshi.

Ushbu kursda materiallarning o'zlashtirilishi uchun nimalar qilinishi lozim, o'zlashtirishni xisobga olish, talabalarni sinov imtixolarini o'tkazish va reyting ballarini to'plash haqida ma'lumot berish, talabalar o'quv tadqiqod va ilmiy tekshirish ishlarining asosiy mazmuni, ularning turmushi, madaniyati va dam olishini tashkil etish, mehnati va turmush nafosati singari soxalariga ham aloxida o'rin ajratiladi.

«Mutaxassislikka kirish» fani sizning kasbiy pedagogik o'quv predmetingiz bo'lib, uning 4 ta asosiy vazifasi bor.

1. Sizlarni o'qituvchining kasbiy faoliyatining ilmiy asoslari bilan tanishtirish.

2. Oliy o'quv yurtlarida o'quv mehnati bilan madaniyatini egallashingizga ko'maqlashish.

3. Keyingi o'quv semestrlarida boshlanadigan pedagogik amliyotni o'tashingizga yordamlashadi.

4. Asosiysi-mustaqil ravishda o'zingizda o'qituvchi shaxsiga kerak bo'lgan fazilatlarni shaqllantirishga, shuningdek o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlashga o'rgatish.

Bu fanning o'rganishning ketma-ketlik va mantiqiy tizimiga quyidagilar kiradi.

1. O'quv faniga kirish; maqsad, vazifa uning mehnati madaniyati, axborotlar to'plami.

2. O'zbekistonda ta'lim mazmuni va uning rivoji to'g'risidagi davlat tomonidan qabul qilingan xujjatlar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - Kadrlar tayyorlash milliy dasturi: - Davlat ta'lim standarti: - Ta'lim to'g'risidagi qonun:

- Prezident I.A. Karimovning O'zbekiston Oliy majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqi «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori».

3. Jamiyat va davlatning o'qituvchilik shaxsiga qo'ygan talablari: - O'qituvchi mehnatining qadri, obro'si. - O'qituvchi shaxsini modeli.

G'arb va sharq mamlakatlarining buyuk mutafakkirlari va pedagoglarining o'qituvchi haqidagi fikrlari.

4. O'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining tizimi, yo'llari va vositalari:

- Pedagogik oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayoni. - O'z-o'zini tarbiyalash o'z ustida ishlash.

A) Talabaning o'quv mehnatini madaniyati.

- Talabaning o'quv mehnati madaniyati haqida umumiy tushuncha.

- Shaxsiy ish texnikasi.

- Xotira va uning rivoji.

- O'quv semestri vaqtida o'quv mehnati va uni tashkil etish.

Birgalikda universitet xonalarida, tajriba maydonlarida, kutubxonalarida o'qituvchi kasbining sirlarini o'rganamiz.

O'qituvchi kasbi oldida barcha bosh egadi. Tanlagan kasbingizga bo'lgan qiziqish sira so'nmasin.

Oliy o'quv yurtlarida islox qilishning asosiy yo'nalishlarida pedagogik kadrlarni tayyorlashni tubdan o'zgartirish. Oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan talabalarni oldindan aniqlagan fan va texnika, iqtisodiyot, ishlab chiqarish va soxalarning extiyojiga, hayot talablariga javob beradigan etib tayyorlash vazifasi qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlisning birinchi chiqiriq, IX, XIV hamda ikkinchi chaqiriq, I-sessiyasida so'zlagan nutqi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi qonunlarida oliy o'quv yurtlarini vazifasi o'z mutaxassisligi bo'yicha har tomonlama chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lgan, mustaqil tafakkur qila oladigan, demokratik davlatimiz siyosatini xalq ommasi va yoshlar o'rtasida targ'ibot qilishga layoqatli, g'oyaviy e'tiqodli, ijodkor va intizomda namuna bo'ladigan barkamol avlod tarbiyalashdan iborat, deb ta'kidlanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan xujjatlarni kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy ma'lumotli yetuk mutaxassislar tayyorlash, ularning sifatli va samarali bilim olishlarini ta'minlash uchun o'quv tarbiya, ilmiy va jamoat ishlarini yuqori talablar darajasiga ko'tarish maqsadida talabalar bilan ta'limning dastlabki bosqichlaridayoq muntazam va astoydil shug'ullanish zarurligini kun tartibiga qo'ymoqda. Ko'pchilik tajriba shuni ko'rsatmoqdaki I-II kurs talabalari oliy maktab metodlarini juda sekinlik bilan o'zlashtiradi, o'z vaqtini to'g'ri rejalashtira olmaydi, undan unumli foydalana olmaydi. Ba'zan o'zi tanlagan kasb haqida yetarli tasavvurga ega bo'lmaydi.

Shu sababli oliy o'quv yurtlarida jumladan pedagogika yo'nalishlarida fakultetlarning o'quv rejalariga «Mutaxassislikka kirish» mustaqil fani kiritiladi.

Bundan qo'llangan maqsad talabalarini oliy maktab hayotiga tezroq moslashtirish, uning sharoitini o'zlashtirib olishda ko'maqlashish bo'lib, oqibat natijada fanni yaxshi o'zlashtirishlarida yordam berish, ulgurmovchilarning oldini olishdan iborat.

«Mutaxassislikka kirish» fani birinchi kurs talabalarini O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi, o'quv tiplari, ta'limni rivojlantirishdagi dolzarb vazifalar, o'quv yurtining qisqacha tarixi tuzulishi va vazifalari, o'quv jarayonini asosiy formalari, o'quv rejasining mazmuni, ilmiy tekshirish ishlari, o'qish va ilmiy ishlarni bajarishda texnika vositalaridan foydalanish, talabalarning huquq va burchlari, kundalik ish rejimi va mustaqil ishlashni tug'ri tashkil etish, kitob ustida ishlash, tabiyat muxofazasi, bibliografiya texnikasi kabilar bilan tanishtiradi.

Oliy o'quv yurtlarining tarmog'i kengaymoqda universitet ta'limi rivojlanmoqda bilimlarni yangi tarmoqlari bo'yicha kadrlar tayyorlash boshlab yuborildi, oliy ta'limni ko'p bosqichli tizimga o'tkazish amalga oshirilmoqda. Abituriyentlar va talabalarning bilim darajasini test va reyting asosida baxolashning ilg'or usullari joriy etildi.

Oliy malakaliy ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar sifatida oshgan talabalarga muvofiq asperantura va doktorantura kadrlartayyorlash ishi kengaymoqda. Oliy attestasiya komissiyasi tashkil etildi. Respublikada qariyb 4 ming asperant bo'lib ulardan 69% oliy ta'lim tizimida, 31% ilmiy tadqiqot institutlarida ta'lim olmoqda. Jami ilmiy va ilmiy pedagog kadrlarning 8 % fan doktorlari 37% fan nomzodlari tashkil

etadi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimida 23 institut, 16 fakultet, 4 markaz, 14 malaka oshirish kurslari ishlab turibdi.

Iqtidorli bolalar va o'quvchi yoshlarni qo'llab quvvatlash bo'yicha davlat siyosati sobiq qadamlik bilan olib borilmoqda. Iste'dodli bolalarni izlab topish, ularga ko'maqlashish ularning qobiliyati va iste'dodini o'stirish bo'yicha maxsus fondlar tashkil etildi, qobiliyatli yoshlarni chet ellardagim yetakchi o'quv yurtlari va ilmiy markazlarda uqitish va stajirovkadan o'tkazish yo'lga qo'yildi.

Fan va ta'lim sohasida xalqaro aloqalar kengayib bormoqda. Kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor isloxlari, zamonaviy taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlash ta'lim tarbiya va o'quv jarayonining tarkibini, bosqichlarini bir biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim tarbiya tizimini tashkil qilishni taqazo etadi.

Buni amalga oshirish yo'llari, vazifalari esa kadrlar tayyorlash milliy dasiturida aniq belgilab berildi.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, Uzbekiston Respublikasining ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy texnikaviy va madaniy extiyojlarini qondiruvchi ustivor soxadir. Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy, shaxsni shaqllantirish va yuqori malakali raqobat bardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart sharoitlar yaratadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlar asosida, turli darajadagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va kuyidagi ta'limturlarini o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim.

Umumiy o'rta ta'lim.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi.

Oliy ta'lim.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

Maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shaqllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish xissini uyg'otadi, uni mantazam ta'lim olishga tayyorlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim 9 yillik (I-IX sinf) o'qishdan iborat umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Ta'limning bu turi boshlang'iya ta'limi (I-IV sinflar) hamda (V-IX sinf) qamrab oladi hamda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish extiyojini, asosiy o'quv ilmiy va umum madaniy bilimlarni milliy va umum bashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarni, ijodiy fikrlash va atrof muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shaqllantiradi. Umumiy o'rta ta'lim tugallangandan so'ng ta'lim fanlari va ular bo'yicha olingan baholar ko'rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil

turdir. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi yo'nalishi akademik lisey yoki kasb-hunar qolleji o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi. Akademik lisey-Davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi. O'quvchilarning qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chukur, soxalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishni ta'minlaydi.

Akademik liseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan yo'nalishi bo'yicha gumanitar, texnika, agrar va boshqa soxalar bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini o'zlarida shaqllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bu ko'nikmalarni o'qishni muayyan oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro'yobga chiqarishlari mumkin.

Kasb-hunar qollejlarini jixozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallashi hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Oliy ta'lim-o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriat, magistratura) bosqichiga ega.

Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik shartnomaviy asosida amalga oshiriladi.

Bakalavriat-mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan ta'lim muddati kamida 4 yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir.

Bakalavriat dasturi tugullagandan so'ng bitiruvchilarga davlat attestasiyasi yakuniga binoan kasb bo'yicha «Bakalavr» darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistratura-aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavr negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Magistratura davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi, «Magistr» darajasi beriladi. Magistraturadagi taqsil yakuniy kvalifikasion davlat attestasiyasi va magistrlik dissertasiyasini himoya qilish bilan nixoyasiga yetkaziladi. Uzluksiz ta'limning yakunlovchi bosqichi.

2. Darajaga: aspirantura va doktorantura.

Aspirantura-nixoyasiga yetkazilgan magistrlik negizida 3 yil davom etadi. Aspiranturaning maqsadi muayyan mutaxassisliklar bo'yicha oliy kvalifikasiyani ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni shaqllantirish. Aspirantura akademik va kvalifikasion imtixonlari hamda nomzodlik dissertasiyalarini himoya qilish bilan yakunlanadi. Bu yakunlarga ko'ra tanlangan mutaxassislik bo'yicha «Fan nomzodi» ilmiy darajasi beriladi.

Doktorantura fan nomzodi ilmiy darajasi negizida 3 yil davom etadi, himoya qilish bilan yakunlanadi. Yakuniga ko'ra tanlangan mutaxassislik bo'yicha «Fan doktori» ilmiy darajasi beriladi.

Qo'yishcha kasb ta'limiga qayta tayyorlash va malaka oshirish kiradi.

Uzluksiz ta'limni amalga oshirishi, oliy o'quv yurtini islohotini oshirish shu

kundagi ta'lim tizimidagi ko'pgina muammolarni xal etishga yordam beradi.

1. Oliy o'quv yurtini bitirayotganlar qanday talabga javob berishi aniqlanadi.
2. Iste'dodli bolalarni topish, tanlash, qabul qilish, ular yetarli bilim olishlari uchun zamonaviy imkoniyatlar yaratiladi.
3. Oliy o'quv yurtlarida qanday va necha xil mutaxassislik bo'yicha ta'lim berish lozimligi belgilab beriladi.
4. Davr talabi qaysi mutaxassisliklar tayyorlash keraqligini aniqlaydi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini boshqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Milliy Davlat Hokimiyati organi, vazirliklar hamda ta'lim muassasasi rahbariga yuklatiladi.

Mavzu: «Mutaxassislikka kirish» fani maqsadi, vazifasi va ish uslubi.

REJA:

1. O'qituvchi-kelajak poydevori (bunyodkori)
2. Mutaxassislikka kirish fanining maqsadi, vazifasi, uslubi va ahamiyati.
3. «Mutaxassislikka kirish» fanini o'rganish bo'yicha mantiqiy strukturaviy sxema.

MAQSAD:

1. Fan haqida umumiy tushuncha berish.
2. Fanni o'rganishga qo'yilgan talablar bilan tanishtirish.
3. Fanni o'rganishga qiziqish uyg'otish, tanlagan kasbini to'g'ri tanlaganiga ishonch uyg'otish.

NATIJA:

- Fanni o'rganish zarurligi sabablari uning maqsadi, vazifasini biladi.
- Ushbu fan orqali oliy o'quv yurtida talabaning funksiyasi, o'quv jarayoni, unga qo'yilgan talablarni biladi.
- Fan bo'yicha semestr oxirigacha o'tiladigan barcha o'quv mashg'ulotlar turini va bu mashg'ulotlarda talaba sifatida o'z vazifasini hamda shu fandan olgan bilimlarini reyting tizimi orqali amalga oshirilishi, shu fandan necha ball to'plashi haqida biladi.
- O'z kasbini to'g'ri tanlaganiga ishonadi.

JIXOZLASH:

- «Mutaxassislikka kirish» fanining mantiqiy strukturaviy sxemasi.
- Talabalarining o'qituvchi kasbi haqida yozgan insholaridan lavxalar.

B) Talabaning ilmiy laboratoriyasi.

- O'quvchilarni o'rganishni pedagogik metodlari.

Bolalar jamoasidagi turli vaziyatlarni echish va uni taxlil qilish.

Anketa o'tkazish.

5. Pedagogik muomala.

- Pedagogik muomalaning mohiyati.
- Pedagogik muomala tizimi.

- Ishda munosabat urnatish.
- Pedagogik muomala treninglari.

6. Pedagogik amaliyot.

- Pedagogik amaliyotning vazifasi
- Pedagogik amaliyotning xususiyatlari
- Pedagogik amaliyotning tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari
- Talablarni pedagogik amaliyotga tayyorlash.

7. Pedagogik amaliyot vaqtida o'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar.

Hamkorlik pedagogikasi

Pedagogik texnologiya

- Ma'naviyat va ma'rifat

Shunday qilib, «Mutaxassislik kirish» fani asosan siz uchun o'z tanlagan kasbingiz to'g'risidagi talablikka tegishli bo'lgan ma'lumotlarni va siz o'qiyotgan oliy o'quv yurti haqida, o'quv jarayoni haqida bilimga ega bo'lasiz. Siz materiallarni qay darajada o'zlashtirish, sizning harakatingiz ma'suliyatni seza olishingiz, har bir berilgan topshiriqqa ijobiy yondoshgan xolda bajarishingizga bog'liq.

Mavzu: O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi va turli tipdagi o'quv muassasalari.

REJA:

1. I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX- sessiyasida so'zlagan «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» nutqining tarixiy ahamiyati.
2. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng ta'lim tizimida erishilgan yutuqlar, kamchiliklar, o'zgarishlar.
3. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimi va uni hayotga tadbiq etish.
4. O'zbekiston Respublikasida turli tipdagi o'quv muassasalarini ochilishi va ularning faoliyati.

MAQSAD:

1. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim tizimida bo'lgan o'zgarishlar, yangiliklar va shu kundagi ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlar bilan tanishtirish.
2. Yangi tipdagi o'quv muassasalari faoliyati haqida tushuncha berish.
3. O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kasbiga bo'lgan munosabat haqida suhbat yuritish qiziqish uyg'otish.

NATIJA:

O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim tizimi haqida tushunchaga ega:

Yangi tipdagi va an'anaviy, o'quv muassasalarini farq qila oladi.

- O'zluksiz talim sohasidagi shu kungi yangiliklar bilan tanishib, ma'lumotga ega bo'ladi.

JIHOZLASH:

- «Ta'lim to'g'risida»gi qonun.
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
- O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisning IX-sessiya materiallari I.A.Karimov nutqi.

MUSTAQIL TA'LIM:

Adadabiyotlar:

Karimov I.A. «Manaviy yuksalish yo'lida» T- O'zbekiston 1998 yil.


Karimov I.A. «Adolatli jamiyat sari» T- O'zbekiston 1998 yil.

«Barkamol avlod orzusi» T-Sharq — 1998 yil

4 Sharif Xujaev, M. Mamatov. «O'zbekiston milliy istiqlol makfurasi»
T- O'zbekiston — 1999 yil.

5. Pedagogika A.Minovarovning taxiriri ostida t-o'qituvchi 1996 yil.

Nutqning asosi



Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining podevori.

Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis IX-sessiyasida so'zlagan nutqi 1997 yil 27 avgust.

Oliy majlisning IX-sessiyasida va Prezident I.A.Karimovning nutqida ko'tarilgan asosiy tamoyillar.

Mustaqil ta'lim:

«Men tanlagan kasb», «O'qituvchi mening taqdirimda» mavzularida ularni o'qib suhbat munozara o'tkazish.

Adabiyotlar:

1. Barkamol avlod orzusi T. Sharq 1998 yil.
2. Pedagogika (A.Munavvarovning umumiy taxriri ostida) T. O'qituvchi 1996 yil.
3. Rajabov N. «Mustaqillikka kirish» T. 1991 yil.
4. O'qituvchi iqtisosiga kirish kursiga metodik ko'rsatmalar. T. O'qituvchi. 1989 yil.
5. Yunusov «Yosh o'qituvchilar bilan ishlashni takomillashtirish yo'llari» T.O'qituvchi 1990 yil.

O'qituvchi:

U bolalarni birinchi marta maktab ostonasidan kutib olib bir necha yillardan so'ng maktab ostonasidan mustaqil hayotga kuzatadi. Yillar o'tishi bilan o'qituvchi mehnati qadriga yetamiz, tushunamiz. Keyinchalik katta bo'lib, o'zimiz ota-ona bo'lgach, bolalar bilan shug'ullansak, biz o'qituvchilik kasbini qanchalik qiyin, sermashaqqat va tinib tinchimas kasb ekanligini tushunamiz.

O'qituvchi kasbini har kim ham tanlayvermaydi. Chunki bu kasb iste'dod. Ichki chaqiriq, qiziqish hamda shu kasb uning kelajakda tanlagan yo'li ekanligini anglamoqdalar.

O'qituvchilarning inson qalbini injineri, arxitektori, kasallikni oldini oluvchi shifokori, idrok zakovat va hamda xotiraning treneri, fikr va xis tuyg'ularning drijyori, insonning birinchi qadami, o'stirilayotgan gulning bog'boni, kelajakning ijodkori deb atashadi. Yuqorida aytilgan har bir fikrning o'ziga yarasha tushunchasi, ifodasi bor. Bu tushunchalarni asta-sekin shu hayotda ko'rib, o'rganib amaliyotda tajriba qilib, mag'ziga yetasiz.

O'qituvchilarning maktab, lisey, qollej, gimnaziya, oliy maktablar, bolalar oromgohlaridagi faoliyatlarining har birini o'ziga xos xususiyati bor. Bu bilan siz dars jarayonida tanishib olasiz.

Xurmatli birinchi kurs talabalari bo'lajak hamkasblar.

Mana shu oliy maktab talabasi, Namangan Davlat Universitetining sharaflari kasb egalari qatoriga qo'shilasiz.

Nizomiy ganjaviy «Hamisha xalq xizmatiga bezak bo'l, olamu odamzotiga» deb aytgan fikrlari to'laligicha o'qituvchilarga qaratilgan desak xato qilmagan bo'lamiz.

Nizomiy Ganjaviy tariflagan shaxs bo'lish uchun tinmay mehnat qilish kerak. O'qituvchi mehnati mashaqqatli va sharaflidir.

O'qituvchi mehnatini biror narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Tikuvchi bir soatdan so'ng o'z mehnatini xosilini ko'radi. O'qituvchi esa o'z ijodining maxsulini ko'rish

uchun yillab mehnat qilish kerak. O`qituvchi har bir minut har bir daqiqada o`zining tarbiyalanuvchilardan har birini ko`rib turishi u shu daqiqada nimalar haqida o`ylayotganligini, qanday g'am-g'ussalar uni tashvishlantirayotganini bilish kerak.

O`qituvchi ruxining tetikligi, aqlning o`tkirliги tasurotlarining sog'lomligi, xissiyotlarining ta'sirchanligini uzoq yillar saqlanishi uchun katta insonparvarlik talantiga va o`z mehnati, eng avvalo bolalarga nisbatan cheksiz muxabbatga ega bo`lishi kerak. Har bir kishining o`qituvchilik kasbiga kirib kelishi, shu kasbni tanlashdan boshlanadi. Bu masalani xal etish shaxsning o`zigina, ya'ni faqat uning xoxishigagina emas, balki jamiyat va pedagogik ishlarga ham bog`liqdir.

Har bir jamiyat va pedagogik ish uchun kimlar o`qituvchi kasbini tanlayotganligi, bu kasbni tanlanishi qanday amalga oshirilgani, ya'ni, kasbni tanlayotganlar o`zlari tushungan xoldami, bir so`z bilan aytganda, ongli ravishda o`zlari shu kasbni sevib tanladilarmi, yoki boshqachami, shuningdek, nima uchun aynan shu kasbni talaganligi, ya'ni shu kasbni tanlashda qanday maqsad qo'yilganligi-bular hammasi beparvo emas.

Shuning uchun ham o`qituvchilik kasbini tanlashda uning barcha ijobiy va salbiy tomonlarini aniq bilib, o`rganib, keyin shu kasbga mexr qo'yib tanlash kerak.

Bu xolda quyidagilarga amal qilish kerak:

1. O`qituvchi kasbini tanlashda faqat o`zining shaxsiy manfaatini emas, balki jamiyat uchun kerak ekanligini anglash.

2. O`qituvchi kasbini istedodiga qarab tanlash.

3. Shu kasb orqali jamiyatga xizmat qilishni tushunishi.

X asarning oxiri XI asrning boshlari yashab ijod etgan buyuk mutafakkir entsikpopediet olim Abu Ali Ibn Sino tarbiya masalalarining muxokama qiluvchi asarlarida o`qituvchi roliga katta e'tibor bergan. O`qituvchini tanlash masalasiga katta e'tibor beradi. U bola 6 yoshga to'lishi bilan uni o`qituvchiga berishni tavsiya etadi.

O`qituvchi «Rostgo'y, dono, odil, ozoda qiyinuvchi, xushmuomala bo'lishi keraqligini talab qiladi va quyidagi talablarni qo'yadi».

1) O`qituvchilar bolalar bilan muomala qilishda bosik bo'lish kerak.

2) O`qituvchi o`z o`quvchilariga bergan ta'limining ular tomondan qanday amalda o`zlashtirib olayotgaligiga aloxida e'tibor berish zarur.

3) O`qitish jarayonida o`qituvchi turli xil metod va formalarni qo'llashi kerak.

4) O`qituvchi o`quvchining xotirasi va boshqa intellektual qobiliyati, aks ettirish kuchini (yoki individual xususiyatlarini) bilish kerak.

5) O`qituvchi bolalarni tarbiya va jazolashni birga olib borish orqali, o'tganlarni takrorlashga majbur qilish orqali, fanga qiziqtirish kerak.

6) O`qituvchi o`z fikrini o`quvchiga aniq tilda ya'ni tushunarli bayon qilishi, o`zi shu masalaning mohiyatiga tushunib olishi, keyin uni qisqa aniq, adabiy tilda bayon qilishi lozim. O`qituvchi ortiqcha so`zdan kechishi kerak.

7) O`qituvchi o`z fikrini barchaga tushunarli etib bayon qilishi, yoshiga, aqliy darajasiga mos bo'lmagan fikr ko'tilgan natijani bermaydi.

8) Har bir so`z harakat mimika bilan tasdiqlanishi bolalarda xissiyot uyg'otadigan bo'lishi kerak. O`qituvchilik faqat pedagogik qobiliyatga bog`liq emas balki ishga bo'lgan munosabati, pedagogik yo'nalish va qiziqishga ham bog`liq bo'lib unda shaxsiy kasbiy va jamiyatning manfaati ham mujassamlashgan bo'lishi kerak.

O`qituvchi kasbini tanlaganlar, shu kasbga qo'yilgan talablarni bilishi va ularga

amal qilishi kerak.

-Pedagogik faoliyatga tegishli bo'lgan o'zidagi shaxsiy sifatlarni rivojlantirish va takomillashtirib berishga intilish;

-Hamisha maktab talabiga mos bo'lishi keraqligi haqida o'ziga hamisha savol berishi;

-Pedagogik kadrlarni sifatni yaxshilashga g'amxo'rlik qilish;

- Har qanday sharoitda ham xolatda ham o'zi tanlagan kasbning fidoiysi bo'lish.

O'qituvchilik kasbi qiyin kasb turkumiga kiradi. Pedagogikani O'qitishda o'qituvchi faoliyatining hamma qirralariga hamma vaziyatlariga retsept berib bo'lmaydi, chunki hayotda o'qituvchi har daqiqada har qanday xolatlarga duch keladi. Shuni xisobga olgan xolda o'qituvchidan katta amaliy tayyorgarlikni, pedagogik uddaburonlik, ijodiy yondashuvchanlikni talab etiladi.

O'qituvchi bo'lib ishlash uchun faqat bilim, malaka va uning topqirligi etarli emas, unga sog'-salomatlik, yaxshi nutq, katta psixologik qarshiliklarga chiday bilish o'zini to'ta bilish kabilar ham kiradi.

Shuning uchun ham o'qituvchi bolalarni o'z qalbini sevis, nazokatli, diqqat e'tiborliligi, tashkilotchi ma'suliyatli bo'lishi kerak.

Mavzu: Pedagogik kasbi, uning jamiyatdagi rivoji va tutgan o'rni.

Reja

1. O'qituvchi va uning kasbi haqidagi fikrlar.
2. O'qituvchi kasbi harakteristikasi.
3. O'qituvchi kasbini tanlashga qo'yilgan talablar.
4. O'qituvchining pedagogik qobiliyati.

Maqsad

1. Talabalarni o'qituvchi shaxsi va kasbining barcha qirralari bilan tanishtirish.
2. Talabalarni o'zlari tanlagan kasbga mexr muhabbat uyg'otish.
3. O'qituvchi kasbining shu kundagi holati, qiyinchiliklari haqida tushuncha berish.

Natija-talabalar o'qituvchi kasbi jamiyat uchun eng keraqli hamda kasblar ichida eng mas'uliyatli va sharaflil kasb ekanligini biladi.

- o'zlari tanlagan kasblari tanlab xato qilmaganliklari to'g'ri tushunadilar.

- xozirgi zamon o'qituvchisiga qo'yilgan talablarni biladilar.

Jihozlash-mutafakkirlarning o'qituvchi kasbi haqidagi fikrlari.

Mustaqil ta'lim «Zamonaviy o'ituvchi kim?» talabalarning fikrlarini o'rganish.

Adabiyotlar

1. Pedagogika tarixidan xrestomatiya tuzuvchi muallif O.Xasanboyeva T. O'qituvchi 1992 yil.
2. O'zbek pedagogikasi antalogiyasi T. O'qituvchi 1995 yil.
3. O'rta Osiyoda pedagogik fikrlar taraqqiyotidan lavhalar T. Fan 1996 yil.
4. Azarov N.P. Bolalarni sevis san'ati. T. O'qish. 1996 yil.

5. Jonmatov X.A. Abu Ali ibn Sino. Ta'lim tarbiya haqida, T-O'qituvchi. 1980 yil.

6. Sharifxo'jayev M, Mamatov N. O'zbekiston milliy istiqlol mafkurasi. T. O'qituvchi. 1994 yil.

O'qituvchi kasbi umrbod davom etadigan kasb hisoblanadi. Inson paydo bo'lgandan buyon u o'z tajribasini o'rgatishga xoxish va extiyoj sezgan. Bu vazifani bajarish, asosan katta tajribalilar zimmasiga tushgan.

O'qituvchi kasbining xususiyatlaridan biri uning jamiyatda o'rgatuvchi, ustoz deb belgilanishidir. O'qituvchi jamiyat o'sib kelayotgan shaxs o'rtasidagi vositachisidir. Shuning uchun ham o'qituvchi jamiyatda eng qiyin jarayonni boshqaradi-bu shaxsni shaqlanishi jarayonidir. Bu jarayonni qiyinligi tarbiyalanuvchi shaxsning o'zgaruvchanligidadir.

Mustaqillikka erishilgan kundan boshlab, maktablarga o'qituvchi murabbiylarga ularni moddiy ma'naviy rag'batlantirish, yordam berish masalalariga e'tibor kuchaytirildi. Chunki o'qituvchi mehnatini hech narsaga tenglashtirib bo'lmaydi. Har kim ham bu kasbning egasi bo'la olmaydi, o'qituvchi bo'lib faqat shu kasbning fidoyisi bo'lganlargagina ishlay olishi mumkin va shundaylarni hamma e'zozlab xurmat bilan boshiga ko'tarishi mumkin.

Respublikamiz prezidenti I.A.Karimovning ushbu aytgan so'zlari o'qituvchilarga bo'lgan hurmatini yanada ortirib, bu kasbni qanchalik sharaflı ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi: «O'z-o'zini el ishiga bag'ishlagan, inson tarbiyasiga jon tikkan oliyjanob o'qituvchilarni, mo'tabar muallimlarni bundan buyon ham boshimizga ko'taramiz», chunki muallim va ustoz shunday zotki, u har qanday insonning ruhini tarbiyalaydi, ma'naviy boylik bilan to'ldiradi. Har qanday ruhiy va ma'naviy kamchilik va illatlardan poklaydi, jaholat degan buyuk aybdan holi va ozod etadi. Muallim va ustoz shunday zotki u imkoniyatni ilm bezagi bilan ziynatlaydi, ularga chiroyli va e'qimli fazilatlar bilan chiroy va oro beradi, tushuntirish bilan foydasiz narsalardan odamni xalos etadi, insonni haqiqiy komil insonlik darajasiga yetkazuvchi bilim xazinasini ularning qalbiga joylaydi.

Muallim va ustoz shunday u sening insonlik haq huquqlaring nimadan iborat ekanligini tushuntirib beradi, yaramas yomon ishlardan qaytaradi va eng yaxshi ishlar va fazilatlar sari yo'l ko'rsatadi. Ular sening yuksaqliging va kasoliga yetishingni o'ylab hamisha jon kuydirishadi, el ichida e'tiborga ega bo'lishingni o'ylab butun kuch va imkoniyatlaringni ishga soladi.

Muallim va ustozning vaqtlari qimmatli ekanligini bilib aytganlariga diqqat bilan quloq sol. Bordiyu biror narsani tushunmay qolsang odob va muloyimlik bilan qayta so'rashing zarur.

Muallim ustozlar nima so'rasalar kulib turib odob va ikrom bilan chiroyli so'zlarni saralab javob ber.

Ilm maskanidan tashqarida yoki ko'cha-kuyda ularni ko'rib qolsang ta'zim bajo qil, qo'lingni ko'ksingga qo'yib salom ber.

Hozirgina siz eshitgan so'zlar, ya'ni muallim va ustoz haqidagi so'zlar turk olimi Mustafo Xomiy poshsho qalamiga mansub.

Alisher Navoiy ustozlar haqida shunday deb yozadi «Inson ziynati bilim va

odobdir. Bularni shogirdlariga singdirgan ustozlargina chinakam ustozlardir».

O'qituvchi xalq xizmatidagi inson. Shuning uchun doim o'z ustida ishlaydi, mahoratini oshiradi, boshqalarni namuna bo'lishga undaydi.

Mavzu: O'qituvchilik kasbining psixologik pedagogik xususiyatlar (6 soat).

REJA:

- 1) O'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar.
- 2) Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati pedagogik qobiliyatga bog'liqligi.
- 3) Pedagoglikka oid fazilatlar.
- 4) Pedagogik maxorati va uni o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati.

MAQSAD.

1) Pedagogik faoliyat, o'qituvchiga qo'yilgan talablar pedagogik qobiliyat haqida tushuncha.

2) Pedagogik maxorati va uning komponentlari bilan tanishtirish. Natija-talabalar o'qituvchining pedagogik qobiliyati va uning qanday fazilatlarga ega bo'lishi haqida tassavurga ega bo'ladi.

- xozirgi davr talabi asosida o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablarni biladi.

- pedagogik maxorati komponentlariga nimalar kirishi va ular o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati, ularni shakllantirish yo'llarini tushunadi.

Jihozlash: Talabalarning o'qituvchi faoliyati uning ijobiy salbiy fazilatlari, faoliyatida uchraydigan qiyinchiliklar va ularni engish yo'llari haqida yozilgan ijodiy insholardan lavxalar.

ADABIYOTLAR:

- 1) Aby Nasir Farobiy, fozil odamlar shaxri T-1993 yil.
- 2) Tonobolin «O'qituvchi haqida qissa Tuk-chi-1971 yil.»
- 3) Pedagogik A Minovvarovning umumiy taxriri ostida T- O'qituvchi 1996 yil.
- 4) Koshifiy Xusayn Void. Kim bilan dustlashish kerak? T-Cho'lpon— 1992 yil.
- 5) Rasmiy va norasmiy uchrashuvlar odobnomasi T-Adolat 1995 yil.
- 6) Xikmatnoma G'tuplamG` T-Cho'lpon 1992 yil.
- 7) Kudratov N nutq madaniyati asoslari T-o'qituvchi-1991 yil.

O'qituvchi qanday ajib so'z bu, har bir bola o'qib, ta'lim oladigan bizning yurtimizda o'qituvchi eng buyuk odam. Bolalarimizning, xalqimizning kelajagi o'qituvchining qo'lida, uning bebaxo qalbidadir.

Bizning mustaqil demokratik jamiyatimiz o'qituvchiga eng aziz, eng qimmatli bo'lishi bolalarni, o'z umidini, o'z kelajagini ishonib topshiradi. Bu g'oyat olijanob va juda qiyin kasb, astoydil o'z umrini shu kasbga bag'ishlagan kishidan doimiy ijodkorlikni, tinimsiz fikrlashni, zo'r qalb saxovatini, bolalarga mexr muxabbatini, ishga astoydil sadoqatni talab qiladi. O'qituvchi o'zining yosh avlodni tarbiyalash soxasidagi fidokorona, ma'rifatparvarlik mehnati bilan xalqning chuqur minnatdorchiligi va xurmatini kondiradi.

O'qituvchi shaxsning qimmatiga baxo berish sistemasida uning professional

yo'nalishi muxim rol o'ynaydiki, uning negizida pedagog faoliyatiga bo'lgan extiyoji yotadi.

U o'zida: -bolalarga qiziqish va muxabbatni

-pedagogik ishga xavasni;

-pedagogik — psixalogik ziyraqli va kuzatuvchanlikni;

-pedagogik odobni

-pedagogik tasavvurni

-tashkilotchilik qobiliyati

-xaqgo'ylikni;

-dilkashlikni

-talabchanlik va kat'iyatlikni

-sobitqadamlikni

-chidamlilikni

-o'zi haqida fikrga ega bo'lish

-professional ish qobiliyatini

-ma'naviy eng avvalo bilim extiyojini va qiziqishini

-intelektual faollikni

-yangilikni xis eta bilish

-pedagogik bilimni mustaqil ravishda oshirishga tayyorlikni

mujassamlashtirgandir.

O'qituvchi pedagogik faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jixatdan pedagogik qobiliyatga bog'liq. Qobiliyat — insonning yakka xoldagi xususiyati bir yoki bir necha turdagi faoliyatda namoyon bo'ladi. Qobiliyat insonga tayyor xolda berilmaydi. U o'qish va tarbiya jarayonida rivojlanish natijasida xisoblanadi. Har bir kishida muayyan soxa bo'yicha biror xususiyat boshqalarga nisbatan kuchliroq rivojlangan bo'lishi mumkin. Ana shu uning qobiliyatidir. Demak qobiliyat shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ishni muvaffaqiyatli bajarishdagi o'ziga xos imkoniyatlarini ifodalovchi individual ruxiy xususiyatlarga aytiladi.

Qobiliyatning ilk va boshlang'ichg tarkibiy qismi iste'doddur. U o'zida anatomik fiziologik belgilar yig'indisini, oliy nerv faoliyatini turinining xususiyatlarini mujassamlashtiradi. Iste'dod ana shu ma'nodagi qobiliyatni yuzaga chiqarishi mumkin, lekin uni oldindan belgilab qo'ya olmaydi. Iste'dod tayyor hamda rivojlanishga qadar va undan ajralgan xolda paydo bo'lmaydi. U individual tarbiyalash jarayonida shakllanadi. Pedagogik qobiliyat o'qituvchilik soxasida muvaffaqiyatli ish olib borishning dastlabki shartlaridandir.

Pedagogik faoliyat asosiy jarayonlarning kuchiga, vazmindorligi va harakatchanligiga nisbatan muayyan talablar qo'yadi. Bunga sabab shuki, o'qituvchi ulkan ish, qobiliyatiga ega bo'lishi, kuchli asab buzarlari xatti harakatiga bardosh bera olishi va o'z diqqat e'tiborini bir narsaga qarata olishi hamisha faol, tetik bo'lishi, butun ish vaqti mobaynida, umuman va emattsiyanol jixatdan yuksak qayfiyatda bo'lishi, kuchlarini juda tez qayta tiklay olishi qobiliyatiga ega bo'lishi; tezdayoq asabni ko'zg'atadigan vaziyatlarda o'zini to'ta bilish; sabr chidamli, vazmin, saramjon-sarishta; faoliyatining o'zgaruvchan sharoitlarida vazmin osoyishta bo'lishi; fikrni aniq ifodalashi xissiyotlarini bir sharoitda izxor etish bilan ajralib turishi; ishlarni bajarishning yuksak sur'atlarini, egallab olish, O'rta qo'yilgan vazifalarni bajarishga

paysallamasdan darxol kirishishi faoliyatning bir turidan ikkinchi turiga tezlik bilan o'ta bilish; mashg'ulotlarni o'tkazishga kukisdan va zarur bo'lib qolgan taqdirda oldindan tayyorgarliksiz kirishi qobiliyatga ega bo'lish; yangi sharoitga tezlik bilan ko'nikish; boshqalar bilan muomala qila bilish kerak;

O'qituvchi umumpedagogik maxorat professional tarzda egallagan hamda pedagoglikka oid sifatlar (qobiliyat)ga ega bo'lishi kerak.

1) O'qituvchini tushuna bilish qobiliyati, uning psixologik xususiyatlarini va harekterini osongina anglay bilish, bilim darajasini, e'tikodini, axloqiy sifatlarini to'g'ri aniqlash.

2) Bolalalarni yaxshi o'zlashtirish va xotirasida saqlab qolish uchun ularga dars materialini tushunarli qilib etkaza bilish qobiliyati.

3) O'qituvchilarni kiziktira bilish qobiliyati; ularda tashabbuskorlikka ixlos uyg'otish; bolalarda zarur bo'lgan emotsiyani tarbiyalab muayyan ishga jalb qila bilish

4) Kishilarni ishontira bilish, ularga ijobiy tarbiyaviy ta'sir o'tkazish (so'zda va ishda shaxsiy o'rnak ko'rsatish yo'li bilan)

5) Qollektivni boshqara bilish, intizomni joriy qilish, bolalarga, ta'lim va mehnat tarbiyasi berish ishini to'g'ri tashkil etishdan iborat bo'lgan tashkilotchilik qobiliyati; dars vaqti va vazifani oqilona taksimlash, o'quvchilarni O'qitish va ularni ishlab ' chiqarishda ishtirok ettirish ishni to'g'ri rejalashtirish

6) Zaruriy pedogogik nazorat, talabchanlik va bolalarga individual munosabatda bo'lish

7) O'z ishining natijasini, ro'y berishi mumkin bo'lgan xatolar qiyinchiliklarni oldindan ko'ra bilish qobiliyati; o'z tarbiyalanuvchilarning sifatlari va bilim darajasini oldindan loyixalashtirishni bilish.

8) Ham ta'lim ham tarbiya soxasida ijodiy ishlash qobiliyati.

9) Ro'y bergan voqeadan o'z vaqtida tezlik bilan xulosa chiqarishni bilish va jamoa faoliyatiga loqaydlik bilan qaramaslik, lozim bo'lgan paytda muayyan maqsadga yo'naltirilgan chora tadbirni amalga oshira bilish qobiliyati.

10) O'z faniga bo'lgan qiziqish asosida dars materialini osonlik bilan yaxshi o'zlashtira bilish va zarur paytda uni takrorlay bilish qobiliyati.

Xususiyatlar o'zaro o'zviy bog'langan bo'ladi. Pedagogik faoliyati uchun foydali va zarur bo'lgan barcha shaxsiy xususiyatlarni ikki guruxga bo'lish mumkin. Umumiy shaxsiy sifatlar (shaxsning iroda, harakter singari xususiyatlar) 1. Bevosita pedagogik qobiliyati o'qituvchining aniq va mantiqli to'g'ri so'zlash qobiliyati tashkilotchilik iste'dodi. Bundan tashqari pedagogik qobiliyatini ikki guruxga ya'ni O'qitishga bo'lgan qobiliyat va tarbiyachilikka bo'lgan qobiliyatga bo'lish mumkin.

Pedagoglik qobiliyatning usishi-qiyinchiliklarini sekin asta va bartaraf etish natijasi ekanini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak Chunki hamma narsa birdan bir vaqtning o'zida ro'y beravermaydi. Bordiyu, dastlab, xatto maktabda bir necha vaqt davomida ishlash natijasida ham ish uncha yurishavermasa bu narsaga qobiliyat sustlik natijasi deb qarash yaramaydi.

Shu narsani yodda tutish kerakki, utgan yili og'ir tuyulgan muammo bu yil ancha engillashadi. Kelgusi yili esa osongina amalga oshirilishi mumkin bo'lgan odatdagi ishga aylanib qoladi.

Shu narsani unutmangki, qobiliyatlar tarbiyalanuvchandir. Hayotda o'qituvchi

kasbiga zid bo'lgan xolatlar ham uchraydi. Masalan: bolalarga bo'lgan qiziqishning yo'qligi, bolalar bilan ishlash qobiliyatning etarli emasligi, ma'naviy va ma'rifiy tomondan tirishqoqligi, bilim darajasining pastligi, tibbiy ko'rik xulosasiga ko'ra o'qituvchilik kasbiga noloyiqligi va boshqalar.

Pedagogik mehnati xususiyatlaridan biri shundaki, u kichkina insonni asrash va saqlash kerak. Bu o'ziga xos xususiyat o'qituvchidan yuksak pedagoglik maxoratni talab etadi. Hamda o'z mehnati va bolalarni sevish lozimligini talab etadi. O'qituvchining aynan mana shu ikki sifati o'z mehnatining ustasiga aylanishga, pedagoglik maxoratini egallashiga yordam beradi. Pedagoglik maxorati bir qatorda komponentlardan tarkib topadi. U pedagogika psixologiya bo'yicha ilmiy bilimlarni yaxshi kasbiy bilimlar, kasbiy qobiliyat, pedagogik etika va pedagogik texnikani o'z ichiga oladi.

O'qituvchilar mehnat faoliyati jarayonida o'z ishlarining chin ustalariga aylanadilar.

O'qituvchi o'quv yurtidayoq ilmiy bilimlar sistemasini puxta egallab olishi zarur.

Pedagogik maxoratni egallashda pedagogika va psixologiyaga doir bilimlar katta rol o'ynaydi. Ilmiy psixologik-pedagogik bilimlar sistemasining mavjudligi o'qituvchilarga faqat o'z sinfini hamda ayrim o'qituvchilarni o'rganishi va ularni to'g'ri harakteristikasini tuzatishgina emas balki bolalar kollektivi va uning har a'zosining rivojlanishi istiqbollarini ham belgilash imkonini beradi. O'qituvchi tarbiyachining amaliy faoliyatini bu ko'plab pedagogik vazifalarini betuxtov xal qilishdir. O'zining kasbiga doir bilimlar zapasidan ijodiy foydalangan o'qituvchigina ularni muvaffaqiyatli xal etish mumkin.

Ammo pedagogika va psixologiyaga doir bilimlar konkret tarbiyaviy momentlarda yuzaga keladigan barcha vazifalarga tayyor javoblar bera olmaydi. O'qituvchining faoliyati-ijodiy faoliyat va aynan bilimlarni ijodiy qo'llash moxir pedagogning o'ziga xos xususiyatini ko'rsatib turadi.

Har bir bo'lajak o'qituvchi va maktabda ishlayotgan o'qituvchi o'zlarida pedagogik qobiliyatini o'stirish uchun zo'r ishtiyoqni namoyon qilishlari kerak. Pedagogik qobiliyat pedagogik faoliyatning shartigina emas, balki natijasi hamdir. Pedagogik maxorati o'qituvchida pedagoglik odobi nazokatning mavjudligi bilan harekterlanadi. O'qituvchining umumiy ma'naviy tarbiyalanganligi pedagogik odobning asosidir. Pedagoglik odobi — bu o'quvchilarga nisbatan pedagogik etikani o'ziga xos amalga oshirilishidir. Pedagoglik odobi bu o'qituvchining yuksak insoniylik, insonga mexribonlik o'zini tuta bilish, sabr bardosh va har qanday vaziyatlardan ham xayrixoxlik munosabatlarini o'rnatib bilish kabilarni qamrab oluvchi ma'naviy xulq atvoridir.

Pedagoglik odobiga ega bo'lgan o'qituvchi va o'quvchilar ota-onalar, hamkasblari bilan bo'ladigan o'z munosabatlarini ustalik bilan boshqaradi. O'qituvchi o'quvchining tarkib topayotgan shaxsi bilan ish ko'radi. Uning bolalar bilan bo'ladigan barcha munosabati: insonga mumkin qadar ko'p talabchanlik va unga mumkin qadar ko'p xurmat printsiplari asosida ko'rilishi kerak.

Bir qator kasbiy malakalar pedagogik odobi bilan boglangan. Bu pedagogik vaziyatni baxolash, o'quvchining xususiyatlarini xisobga olib, pedagogik ta'sir keltirib

chiqarishi mumkin bo'lgan samarani oldindan ko'rish malakasidir. Pedagogik odobi yuksak pedagogik maxoratning mavjudligidir.

Pedagogik odobni egallash o'qituvchidan o'z ustida puxta ishlashni talab etadi. O'qituvchini o'z xatti-harakatini doimo nazorat qilishi, qarashi, ishorasi bilan o'quvchilar xatti harakatiga o'z munosabatini bildirga olishi kerak. Ya'ni pedagogik odobi o'qituvchida o'z tuyg'ularini ifoda qilishning tashqi malakalari mavjud bo'lishini nazarda to'tadi, malakalarning bunday majmui pedagoglik maxoratning tarkibiy qismi bo'lib, u pedagoglik texnikasi deb ataladi. Pedagoglik texnikasi o'qituvchiga o'quvchilar va ularning ota onalari bilan muloqotda bo'lishda to'g'ri muomala tarzini tanlash imkonini beradi. Muomala tarzi, bolalar bilan munosabat uslubi, diktsiya, mimika, imo-ishoralarni to'g'ri tanlash, bularning barchasi pedagoglik texnikasi tushunchasiga kiradi.

Pedagoglik texnikasi, shuningdek ovozini yo'lga qo'yish texnikasi sanatidir.

Bolalar bilan ishlaganda pedagoglik texnikasi tarbiyachilarga o'qituvchilar kollektividagi munosabatlarini boshqarish imkonini beradi.

O'qituvchining pedagoglik maxorati uning intellekti va madaniyatiga hamda kasbiga doir vazifalarni xal qilish qanchalik qo'lidan kelishini doimo tekshirib borishi, bola ongi hamda qalbiga eng yaxshi yo'llarini axtarish va izlab topishga ham bog'liq.

O'qituvchi o'quvchiga o'zining xatti-harakati bilan ham turmush tarzi qiyofasi bilan ham ta'sir qiladi. Uning intellekti va madaniyati, xaqgo'yiligi va insoniyligi uning ma'naviy sifatleri o'quvchi tomonidan etalon sifatleri qabul qilinadi. Shuning uchun ham o'qituvchi u qaysi predmetni olib borishdan qat'iy nazar yoshlar uchun murabbiylik murabbiysi, taqlid uchun yuksak namuna, o'rnak bo'lishi kerak.

Pedagoglik kollektivda o'zining pedagoglik maxoratiga ko'ra keng o'qituvchilar bo'lishi mumkin emas, ammo ularning barchasi umumiy ish uslubiga ega bo'lishlari, umumiy fikr bilan uyushishlari bir-birlarini xurmat qilishlari, usishda bir-birlariga yordam berishlari kerak. O'qituvchilar hamkorlikda, bir-birlarini o'zaro qo'llab-quvvatlab ishlaydigan pedagogik jamoadagina o'quvchilar ta'lim-tarbiya berishda yuqori natijalarga umid qilish mumkin. Agar jamoada soglom ma'naviy psixologik muxit yaratilgan bulsa, o'qituvchilarning muvaffaqiyatlari o'zini kuttirib qo'ymaydi.

Mavzu: Pedagoglik faoliyatga tayyorlash jarayoni

1) Mavzu: Pedagogik oliy o'quv yurtida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etilishi

REJA:

- 1) Pedagogik oliy o'quv yurtining strukturasi va faoliyat mazmuni.
- 2) O'quv rejalari va dasturlari.
- 3) Pedagogika oliy o'quv yurtlarida asosiy o'quv mashg'ulotlarining turlari va ularning ahamiyati
- 4) Talabalar bilimini nazorat qilish va baxolashning reyting tizimi.

Maqsad:

Talabalarga Namangan Davlat universitetining strukturasi va faoliyati haqida tushuncha berish Nam DUNing har bir bo'limining faoliyati bilan tanishtirish.

2) NamDUda o`quv tarbiya jarayonida qo`llaniladigan ta'lim-tarbiya metodlari, o`quv mashg`ulotlari turlari bilan yaqindan tanishtirish, o`quv mashg`ulotlarning har biriga harakteristika berish.

3) O`quv mashg`ulotlari va reyting tizimini talabalar tarbiyasini takomillashtirishdagi rolini aniq misollar orqali yoritish. Talabalarda o`zlari o`qiyotgan oliy o`quv yurtlariga mexr uyg`otish, shu universitetning talabasi ekanligidan faxrlanish tuygusini uyg`otish.

Natija:

Talaba NamDUda o`quv jarayonida qo`llaniladigan mashg`ulotlar turini uning mazmuni ahamiyatini, ularga qanday tayyorlanishi, mashg`ulotlardagi ishtirokini, talabalarga qo`yilgan vazifa va talablarni biladi.

NamDUNing har bir bo`limi, raxbarlarning vazifalarini to`liq bilgan xolda mustaqil ravishda ularning qay biri bilan nimalarni xal etish mumkinligini biladi.

Jihozlash: NamDUNing strukturaviy chizmasi, o`quv mashg`ulotlari chizmasi
Mustaqil ta'lim:

ADABIYOTLAR:

- 1) Barkamol avlod orzusi T- sharq 1998 yil.
- 2) Pedagogika (Minovvarovning umumiy taxriri ostida) T-O`qituvchi 1996yil.
- 3) Rajabov N. Mutaxassislikka kirish. T-o`qituvchi 1991 yil.
- 4) Kudratov N. Nutq madaniyati asoslari. T-o`qituvchi 1993 yil.
- 5) Yunusov T. Yosh o`qituvchilar bilan ishlashni takomillashtirish yo`llari. T-o`qituvchi 1990yil.
- 6) O`qituvchilik ixtisosiga kirish kursiga metodik qo`llanmalar. T-o`qituvchi 1989 yil.

Pedagogik oliy o`quv yurtning asosiy raxbari rektori xisoblanadi. Uni O`zbekiston xukumati tomonidan tasdiklanadi va tayinlanadi. Rektor oliy o`quv yurtidagi barcha jarayonga shaxsan javob beradi, oliy o`quv yurtining barcha yo`nalishidagi ishlarga raxbarlik qiladi.

O`quv metodik, ilmiy tadqiqod, xo`jalik va ma'naviyat va ma'rifat ishlari bilan oliy o`quv yurtining prorektorlari ya'ni pektorning urimbosarlari shugullanadi.

Oliy o`quv yurtining asosiy bo`limini kafedralar tashkil etadi, kafedralarni professorlar yoki dotsent lavozimidagi kafedra mudirlari boshqaradi. Kafedra o`quv metodik, ilmiy tadqiqot ishlarini bir yoki bir necha fan bo'yicha amalga oshiradi. Bizning oliy o`quv yurtimizda umumuniversitet kafedralar mavjud umumiy pedagogika va psixologiya, iqtisodiyot nazariyasi, falsafa, O`zbekiston tarixi shuningdek har bir fakultetda mutaxssilik kafedralari bor.

Har bir fakultetda o`quv tarbiya ishlarini boshqarish uchun dekanat mavjud. Fakultet ishini va dekanat ishini dekan boshqaradi. Dekan shu fakultetdagi barcha o`quv tarbiya, ilmiy tadqiqod, ma'naviy va marifiy ishlarga raxbarlik qiladi. Fakultet bo'yicha buyruqlar chiqaradi. Dekan o`quv ishlari va ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha dekan urimbosarlariga ega. O`quv ishlari bo'yicha dekan muovini o`quv jadvalini tuzilishiga va uni bajarilishiga javob beradi. O`quv rejalarini bajarilishiga ham javob

beradi. O`qituvchilar va talabalar bilan ishlaydi. Ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha dekan muovini fakultetdagi tarbiya ishlariga, talabalarning bosh vaqtlarini qiziqarli o'tishini va yotoq xonadagi tarbiyaviy ishlar bilan shug'ullanadi.

Mutaxassisliklar bo'yicha bir biriga yaqin bo'lgan kafedralar fakultetda yig'iladi. Dekanni rektor oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan xolda tayinlaydi.

Bizning universitetimizda 6 ta fakultet mavjud. Filologiya, tabiiy fanlar, huquqshunoslik, pedagogika, tarix, fizika-matematika.

Pedagogik oliy o`quv yurtida, universitetning katta ilmiy kengashi bor, uning raisi rektor xisoblanadi. Kengashga prorektorlar, dekanlar, etuk professorlar, jamoa tashkilotlar vakillari, kafedra mudirlari kiradi.

Shuningdek har bir fakultet o'zining shunday ilmiy kengashiga zga, kengashga fakultet dekani raislik qiladi va unga a'zo bo'lib dekan muovirlari, etuk professor o`qituvchilar kiradi.

Pedagogik oliy o`quv yurtida kasaba uyushmasi va yoshlarning «Kamolot jamg'armasi» katta o`rin tutadi. Ularning vazifalariga professor o`qituvchilar va talabalarning o`qishlariga, ishlariga sharoitlar yaratish, ularni yaxshi mustaqil chiqarishlari ish va o`qishdan so`ng dam olishlariga sharoit yaratadi, ko'maklashadi. Vaqti vaqti bilan moddiy yordam ko'rsatadi.

Oliy o`quv yurtida quyidagi lavozimlar belgilangan professor (Odatda fan doktori, dotsentlar odatda fan nomzodi) katta o`qituvchi, assistent o`qituvchi, kabinet mudiri, katta laborant, o`quv ustasi, laborant.

Har bir oliy o`quv yurti o`quv rejasiga ega o`quv rejasi asosida dasturlar tuziladi. Bu dasturlar o`rganilayotgan predmetlarning mazmuni va o`rganish tartibini ochib beradi. O`quv reja—davlat xujjati xisoblanadi chunki davlat standartlari asosida tuziladi, hamda har bir o`quv yilida o`rganiladigan predmetlar ketma-ketligi ko'rsatiladi.

Pedagogik oliy o`quv yurtlari dasturiy materiallarga o`zgartirishlar kiritishlari mumkin, hamda maxsus kurslar, seminarlar fakultetiv va diplom ishlari kiritishlari mumkin. Pedagogik oliy o`quv yurtlari o`quv rejalari 3 ta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi.

1. Ijtimoiy fanlar-O'zbekiston tarixi, falsafa iqtisodiyot, davlat huquqlari, ma'naviyat va ma'rifat asoslari bular hammasi Bo'lajak o`qituvchini kasbiy rivojlanishiga yordam beradi.

2. Psixologik pedagogik fanlar-mutaxassislikka kirish, pedagogika psixologiya tarixi, umumiy psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya, pedagogik texnologiya, pedagogik maxorat asoslari, mutaxassislik bo'yicha o`rganilayotgan predmetning metodikasi, bu fanlar pedagogik faoliyat va kasb maxoratining asoslarini yoritib beradi.

3. Maxsus fanlar-ixtisoslikning yo'nalishiga keng yoritib beruvchi va aniqlab beruvchi fanlar bo'lib, talaba uchun eng kerakli fanlar xisoblanadi.

O`quv rejasida pedagogik amaliyot o'tkazishni ham ko'zda tutadi. U o'zida barcha o`quv va tarbiya ish turlarini jamlaydi.

O`quv jarayoni tashkiliy va metodik shakllardan iborat bo'lib qolmasdan u keng va ko'p qirralidir. O`quv rejalari, o`quv dasturlari, dars jadvallari, sinovlar, maslaxatlar, imtixonlar, joriy oraliq yakuniy nazoratlar, turli xil tajribalarni qamrab oladi. Uning har bir bo'lagi o'z mazmuni va yo'nalishiga egadir.

O`quv rejası davlat xujjati bo`lib, o`quv ishlari tartibi, mazmuni, shaqlarini aniq belgilab berishda shuningdek talabalarining bilimini nazorat qilish va baxolashda aloxida ahamiyatga egadir.

O`quv rejasida leksiya va amaliy mashg`ulotlar, nazoratlar ketma- ketligi, diplom ishlari, ta`til ishlarini olib borish va o`tkazishning muddatlari aniq ko`rsatiladi. O`quv rejasiga muvofiq boshlang`ich kurslarda ko`proq umumiy fanlar o`qitiladi. Yuqori kurslarda esa mutaxassislik bo`yicha leksiya amaliy mashg`ulotlar o`tkaziladi. O`quv rejalari hamma o`quv yurtlari uchun bir xilda emas, chunki ularning har biri o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib o`quv muddatini belgilashda xisobga olinadi.

Har bir fakultetning bo`limlari uchun o`quv rejalari tuziladi, o`quv rejasida 4 yil davomida o`qiladigan fanlar bo`yicha maruzalar, amaliy mashg`ulotlar, maxsus kurslar, maxsus seminarlar, yozma ishlar, diplom ishlari, pedagogik va ishlab chiqarish tajribalari amaliyotlari imtixon va sinovlar muntazam ravishda aniqlab beriladi. O`quv rejası tuzib bulingach, muxokama etiladi va tasdiqlanadi.

Tasdiqlangan o`quv rejası uzoq yillargacha amalda qo`llanib boriladi.

Lekin o`qish jarayonida ba`zi o`zgartirishlar kiritilishi mumkin va bu o`zgartirishlar kafedra va fakultetning tavsiyasi bilan universitet ilmiy kengashida tasdiklangandan keyin kuchga kiradi.

O`quv rejasidagi har bir fan o`zining o`quv dasturiga ega bo`ladi. Dasturlarni olimlar va tajriba o`tkazuvchi o`qituvchilar tuzishi mumkin. Dasturlar ma`ruza va amaliy mashg`ulotlarni olib boruvchi va pedagoglar tomonidan tuziladi. Chunki o`quv rejasining mohiyatini auditoriya bilan muloqotda bo`lgan mutaxassisgina to`la ochib berishi mumkin.

Dastur qisqagina so`z bilan tashlanib so`z boshi dasturni tuzuvchi yoki muharrir tomonidan yoziladi. Dasturning maqsadi, talabalarga qo`yiladigan talablar, vaqtning taqsimoti beriladi, so`ngra bir necha boblar yoki qismlarga bo`linadi. Har bir bob yoki bo`limda aloxida o`tiladigan mavzular yoki kichik mavzular berilib, oxrida zaruriy va qo`shimcha adadabiyotlar ro`yxati keltiriladi.

Dasturda fanlar bob qismi va bo`limlarga bo`linadi, har bir bob, bo`lim yoki qismdan so`ng foydalanish lozim bo`lgan adadabiyotlar ro`yxatini prezidentimiz I.A. Karimov asarlari, so`ngra shu fanga taaluqli bo`lgan adadabiyotlar alfavit tartibida keltiriladi. Bu o`qituvchining ma`ruzalariga, amaliy mashg`ulotlarga tayyorgarlik ko`rishini osonlashtiradi.

Ma`ruzalar va ayrim amaliy mashg`ulotlar jadvali bir semestrda o`tiladigan fanlar yuzasidan tuziladi. Unda yarim yillik soatlar xisobga olinib, xaftalarga bo`linadi. Shuning uchun ham har semestr bo`yicha o`tilishi lozim bo`lgan soatlarni muntazam ravishda jadvalga joylashtirilishi va o`tish tabiiy xol xisoblanadi. Dekanat dars jadvalini tuzilishiga aloxida e`tibor beradi. Chunki qulay vaziyatda tuzilgan dars jadvali o`z navbatida o`qituvchining ham talabaning ham vaqtida tejaydi va ishini osonlashtiradi.

Mavjud o`quv dasturlari asosida o`qituvchi ishchi dasturlar tuzadi. Unda kerakli materiallar, adadabiyotlar mashg`ulotlarning xajmi, soati aniq ko`rsatiladi. Shuningdek ma`ruza va amaliy mashg`ulotlar aloxida ko`rsatiladi. Adadabiyotlarning bir qismi mustaqil ishlash uchun tavsiya etiladi.

Pedagogik oliy o`quv yurtlarida asosiy o`quv mashg`ulotlariga quyidagilar kiradi: ma`ro`za seminar, amaliy laboratoriya mashg`ulotlari, kurs ishlari, diplom ishlari,

konsultatsiya, qollokvium, reyting nazorati, yozma ishlar, mustaqil ta'lim va boshqalar kiradi. Bundan tashqari talabalarning ilmiy jamiyati yo'li bilan o'qituvchilar raxbarligida, kafedra va laboratoriyalar koshida talabalar ilmiy to'garaklarda, institut talabalarining ilmiy konferensiyalarida dokladlar tayyorlash va unda ishtirok etish yo'li bilan ham chuqur bilim oladi.

Ma'ruza o'qitish jarayonining asosiy shaklidir. O'qitish jarayoni shakllari ichida ma'ruza eng asosiysi xisoblanadi. U ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan ishdir. Ma'ruzani o'qish yuqori malakali olimlarga topshiriladi. Chunki ma'ruza kursini tayyorlash oliy maktab o'qituvchisidan katta maxoratni talab qiladi. Ma'ruza vaqtida har turli amaliy mashg'ulotlarda ham asosiy e'tibor talabalarning mustaqil fikr yuritishini rivojlantirish, bilim va malakasini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ma'ruza auditoriyada olib boriladigan dars formasidir.

Oliy maktablarda o'qitiladigan ma'ro'zalar darslik qo'llanmalar va boshqa manbaalardagi materiallar qayta bayon qilib berishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki o'qituvchining aniq bir soxa bo'yicha shaxsiy ilmiy pedagogik, ijodiy izlanishlarini ham o'zida jamlashi kerak. Ma'ro'zaga o'qituvchi va talabalar muntazam tayyorlanib boradilar, ma'ro'zani qayta ishlab, tuldrib mukammallashtirib boradi, bunda har bir o'qituvchining o'z amaliy qarashlari materiallarga shaxsiy munosabati, ilmiy umumlashtirmalari bo'ladi. Bu esa o'qituvchilardan adabiyotlar tanlash, ulardan o'rinli foydalana olish, matbuotda paydo bo'layotgan yangi adbiyotlardan etarli xisobga olib borish talab etiladi. Har bir o'qituvchi ma'ro'zaga tayyorlanishda ushbu mavzuga taalluqli bo'lgan ko'pgina materiallarni qamrab olishga harakat qiladi. Shuningdek har bir soxaning darslik va qo'llanmalar, monografiya va ilmiy maqolalar, jurnal va gazetalar, radio va televidenie materiallaridan foydalanadi. Bu materiallari tartibga solinib, ma'lum reja asosida yozib chiqiladi.

Oliy maktabda ma'ruzaning quyidagi turlaridan foydalaniladi: akademik ma'ruza, ma'ruza xikoya, ma'ruza-munozara va ommaviy ma'ruza. Bu ma'ruzalar yozma formada ifoda etiladi. Buning uchun lektorda reja va ma'ruza matni bo'lishi kerak. Ayniqsa ma'ruzada ishlatiladigan izoxlar, ko'chirmalar, ma'lumotlar, misollar yozma ravishda aloxida kartochkalarga tayyorlangan bo'ladi. Auditoriyada tinglovchilarga etkaziladigan o'quv materiallarining yo'nalishi va ularni talabalar qabul qilib olishi turlicha bo'ladi. Bu so'zsiz, talabaning umumiy bilimi, o'rta maktabdagi mashqi, ularga ta'lim bergan o'qituvchining maxoratiga bog'liq. Chunki ular oliy maktabgacha bilim asoslarini egallagan bo'ladi.

Ma'ruza formasidagi mashg'ulotlar turli traditsion ko'rgazmali qo'llanmalar; kartochkalar, sxemalar, jadvallar, modellar, maketlar, haritalar, zamonaviy ko'rsatmali qo'llanmalar: o'quv teledasturi, o'quv kinofilmlari, diofilm va diapozitiv vidiofilmlardan foydalangan xolda olib boriladi. O'qituvchi ma'ruza o'qish bilan bir vaqtda talabalarga ba'zi vazifalarni kutubxona, labaratoriya va arxivlarda ishlash uchun beradi.

Aslini olganda talabalar o'qituvchi bilan birgalikda ma'ruzalarga tayyorlanib kelishlari kerak. Bu talabalarning asosiy vazifasi deb qaraladi. Chunki talabalar ma'ruzani tinglaydilar va konspektlashtirib boradilar. Har bir talaba ma'ruzani yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun quyidagi bosqichlarga rioya qilish lozim: ma'ruzani tinglashga tayyorgarlik ko'rish, ma'ruzani tinglash, uni konspektlashtirish va yozib

olingan tekstni o'rganish qayta ishlab chiqish.

Talabalar ma'ruza tinglayotganda rektor tomonidan beriladigan materiallarni diqqat bilan avvalo tarixiy, davriy materiallarini, undagi tarixiy voqealarni utmish tarixida ayrim shaxslarning rolini, diagramma va sxema materiallari, miqdoriy ko'rsatgichlarini, ko'chirmalarini aniq manzili bilan yozib borishlari kerak. Ma'ruza davomida talabalar barcha imkoniyatlaridan (ko'rish, eshitish, yozib olish) kabilar mumkin qadar foydalanishga erishishlari kerak. Talaba ma'ruzani tinglash va yozib borishda ma'lum ko'nikma va malakaga ega bo'lishi kerak. Ma'ruzani tinglashda talaba faol mustaqil fikrlash faoliyatini boshidan kechiradi. Demak ma'ruzani mohiyatini yaxshi tushunish uchun rektorning har bir so'zini diqqat bilan tinglash va fikrning asosiy mohiyatiga e'tibor berish zarur. Ma'ruzaning eng avvalo rejasini yozib olish, lekin rektor aytgan gaplarning hammasini yozib olish shart emas, uning asosiy mazmunini so'zlari bilan yozib borish etarlidir. Bunda berilayotgan ta'riflar, ko'chirmalar to'liq va aniq qilib yozib olinishi shart. Ma'ruzani yozib borishda doimo diqqat, e'tibor talab etiladi.

Uning asosiy mazmunini o'z so'zlari bilan yozib olish etarlidir. unda berilayotgan ta'riflar, ko'chirmalar to'liq va aniq qilib yozib olinishi shart. Ma'ruzani yozib borishda daftarning bir chetidan to'rtidan bir yoki beshdan bir qismi xajmida ochiq joy qoldiriladi. Shu ochiq joyga ma'ruza vaqtida paydo bo'lgan savollar va ayrim muloxazalar yozib boriladi. Ma'ruzadagi xulosa va natijalar mumkin qadar batafsilroq yozib olishga ulgurish kerak. Yozib olingan ma'ruza matnini iloji boricha o'sha kuniyoq yoki ertasiga albatta bir marta o'qib va tuzatib chiqish, umumiy qabul qilingan talablar jumlasiga kiradi. Bu ma'ruzani qayta ishlash deb yuritiladi. Seminarlar-o'zlashtirilayotgan yangi materiallarning qismi talabalar tomonidan qanday o'zlashtirilishini tekshirib ko'rish maqsadida o'tkaziladigan dars formasi. Seminar mashg'ulotlari ma'ruza metodi orqali berilgan ma'lumotlarni umumlashtirish va mustaxkamlash maqsadida barcha ijtimoiy fanlar uchun tadbiq qilinadi. Seminar mashg'ulotlari odatda maxsus mavzuga bog'ishlangan bo'lib, uning rejasini ilgariroq e'lon qilinadi va seminar mavzusiga bog'liq adabiyotlar ko'rsatiladi. Talabalar seminar mashg'ulotiga tayyorlanayotganlarida ko'rsatilgan adabiyotlarni olib o'qiydilar, zarur materiallarni qonun qoidalarini atroflicha ishlab chikib, uni bir umumiy konspekt xoliga keltiradilar. Talabalar seminar tayyorgarlik ko'rayotganda ma'ruza yozish tavsiya etiladi. Bu ma'ruzarlarini ham aytish kerak bo'ladi. Talabalar seminar mashg'ulotlariga chiqish qilganlarida o'z yozuvlarida foydalanish mumkin. Seminar mashg'ulotlarini aniq savollar yordamida o'tkazish o'rganilayotgan fanni ma'lum izchillikda o'zlashtirishga yordam beradi. Seminar yuzasidan savol javoblar qilingan, o'qituvchi barcha so'zga chiqqan talabalarning muloxazalari va ma'ro'zachining savollariga bergan javoblari bo'yicha o'zining fikrini aytib seminar yakun yasaydi. Agar seminar mavzusiga doir barcha materiallar qamrab olinmagan bo'lsa, u holda ma'ruzachiga qayta ishlash tavsiya etiladi. Shundan so'ng o'qituvchi navbatdagi seminar mavzusini e'lon qilib, talabalarga ushbu mavzu bo'yicha ham tayyorgarlik ko'rib kelishlarini aytadi.

Amaliy va tajriba mashg'ulotlari-ma'ruza kursida olingan bilimlarni amalda tadbiq qilish maqsadida o'tkaziladigan dars shaqllaridan biridir. Bu ikki mashg'ulot o'zining xususiyatlariga ko'ra bir-biri bilan chanbarchas bog'liqdir. Amaliy va tajriba darslarida talabalar ikki guruxga bo'linadi. Amaliy mashg'ulotlar ijtimoiy fanlar (tarix, til, adabiyot, huquq, pedagogika) tajriba mashg'ulotlari (ximiya, fizika, biologiya) uchun

qo'llaniladi. Amaliy va tajriba darslari talabaga ma'ruza jarayonida olgan bilimlarini amalda tadbiq etishda malaka xosil qiladi. Amaliy va tajriba darslari oxirida har bir talaba vazifani bajarib bo'lgandan keyin, o'qituvchi qilingan ishlarni ko'radi.

Maslahatlar (konsultatsiya) — oliy va o'rta maktabda o'qitishning teng qo'llaniladigan bir shakli bo'lib, ko'pincha ma'lum kurs materiallari o'tib bo'lingach talabalar va o'zlashtirmovchi talabalar bilan yakka xolda yoki gurux bilan o'tkaziladi. Maslahatlarda o'qituvchi talabalarning tushunmagan savollariga javob beradi yoki biror muammoni echishda mutaxassislik maslahati beriladi.

Kurs ishlari-oliy o'quv yurtlarida oxirgi kurs talabalarini ilmiy tadqiqod ishlarini olib borish malakasini xosil qilishga, ma'lum ilmiy harakterga ega bo'lgan, qisqacha ma'ruza yozishga o'rganishga chorlaydi. Odatda kurs ishlari yozishda o'qituvchi raxbarligida mavzu tanlab olinadi va mavzuga doir reja tuziladi, rejaga asosan kurs ishi yozilib taqriz qilinadi va o'qituvchiga topshiriladi. Kurs ishini bajarish jarayonida o'qituvchidan aniq maslahatlar olib turiladi. Hamda ma'lum grafik asosida ximoya qiladilar. Kurs ishlari kafedrada besh yilgacha saqlanadi. Kurs ishlari talabalarni o'quv tadqiqod ishlarining asosiy shakllaridan birini tashkil etadi.

Diplom ishlari eng yaxshi o'zlashtiruvchi va ilmiy izlanish ishlari olib borishga qobiliyati bo'lgan talabalarga beriladi. Talabalar oliy o'quv yurtini tamomlayotganlarida tanlagan mavzulari bo'yicha ilmiy tadqiqod olib boradilar. Shu mavzu bo'yicha adabiyotlarni ishlab chiqib, uning foydasini ko'rsata bilishlari, kerak. Diplom ishi o'qituvchi raxbarligida yoziladi. Talabalarning ilmiy ishlari talabalar ilmiy jamiyatlari anjumanlarida, kafedrada, davlat imtixon komissiyalarida tinglanadi va muxokama qilinadi va baxolanadi.

Malakaviy ishlar-O'qitish jarayonida keng qo'llaniladigan dars formalaridan biri bo'lib, ayniqsa, tabiiy fanlarni to'laroq o'zlashtirishda juda qulaylik tugdiriladi. Qollokviumda fanning 6ir bo'limi o'tib bo'lingach, shu bo'limni talabalar qanday o'zlashtirganliklari sinab ko'riladi. Unda o'qituvchi talabalarga vazifalar beradi.

Talabalar savollarga birin ketin javob beradilar. Talabalar o'qituvchi tomonidan yakunlanib, umumlashtiriladi va faol ishtirok etgan talabalar rag'batlantiriladi.

Talabalar bilimini nazorat qilish va baxolashning reyting tizimi, o'qitish jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir. Har bir fan bo'yicha talabaning o'zlashtirishini baxolash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlari orqali amalga oshiriladi.

Joriy nazorat-o'tilayotgan amaliy seminar yoki laboratoriya darslarini talaba tomonidan qanday o'zlashtirayotganini muntazam ravishda dars jarayonida baxolash. Bunday baxolash belgilangan tartibda o'tkazilib talabaning bilim darajasini fanning har bir mavzusi bo'yicha aniqlab borishni ko'zda tutadi. So'rovlar qollok viumlar, seminarlar, yozma ishlar, testlar tarzida bilimlar, malaka va ko'nikmalar tekshiriladi.

Oraliq nazorat-fan bo'yicha o'tilgan nazariy darslarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan bo'lim yoki qism bo'yicha talabaning o'zlashtirish ko'rsatgichini aniqlashga qaratilgan. Bilimlar, malaka va ko'nikmalarini baxolash uchun oraliq nazorat imtixonlar, testlar, sinovlar kurs va malakaviy ish shakli o'tkaziladi.

Joriy oraliq nazoratlar natijasida erishish mumkin bo'lgan maksimal reyting ballari fanga ajratilgan dars soatlari 100 % miqdoriga teng.

Yakuniy nazorat-fanning bir semestrda o'tilgan mazmuni bo'yicha talabaning

o`zlashtirish ko`rsatgichini ajratilgan ballar ko`lamida fan uchun ajratilgan reyting ballarning 30 % miqdorida reytingni aniqlash dasturlari bo'yicha aloxida o`tkaziladi, hamda oldingi baxolashlarda to`plangan reyting ballarini jamlanishi. Bunda talabani fan bo'yicha to`plagan reyting ballarini qoniqtirmagan xolatdagina reyting ballarini ko'tarish imkonini berish maqsadida, fanning semestr davomida o`tilgan mazmuni doirasida bilimi baxolanadi. Talaba yakuniy nazoratga ajratilgan ballar xajmining 55 % dan ortig'ini to`plagan xoldagina yakuniy nazorat natijalari JN, ON, reyting ballariga ko`shiladi. Bunda talabaning to`plagan reyting balli, ushbu fan uchun ajratilgan maksimal reytingdan oshib ketmasligi kerak.

Talabalarga ma`ruza o`qishda, amaliy tajriba mashg`ulotlarini o`tkazishda, seminarlar tashkil etishda, kurs va diplom ishlariga raxbarlik qilishda, reyting tizimini o`tkazishda oliy maktab talabiga to`la amal qilingan xolda ish ko`riladi.

Mustaqil ta'lim bu o`tilgan darslar ma`ruza va amaliy mashg`ulotlar, seminar va bo`limlar yuzasidan adabiyotlarni mustaqil ravishda ishlab chiqilib, ayrim savollarga aniq javoblar topish bilan bog`liqdir. Manbalarni mustaqil mutoala qilish yo`li bilan uyilgan savollarga bir necha adabiyotlarda umumlashtrib javob topishga o`rgatib borish yaxshi natijalar beradi. Mustaqil ishlashni tashkil etishda o`qituvchilarning roli katta.

Mavzu: Talabaning o`quv mehnati madaniyati.

Reja:

1. Mustaqil ishlashni tashkil etish.
2. Kitob ustida ishlash va uning bosqichlari.
3. Aqliy mehnat va uning ahamiyati.
4. Talabaning odob va axloq madaniyati.
5. O`z ustida ishlash va o`z-o`zini tarbiyalash mazmuni metod va vositalari.

Maqsad:

1. Talabalarga o`quv jarayoni va undan keyingi vaqtda vaqtdan keyin unumli foydalanish yo`llarini o`rgatish.
2. Aqliy mehnat gigienasiga rioya qilish, uning madaniyati haqida tushuncha berish, keraqli maslaxatlar berish.
3. Ta'lim olish davrida o`z ustida ishlash va o`z-o`zini tarbiyalashning yo`llarini o`rgatish.

Natija:

Mustaqil ishlashni tashkil etishda xafta va kunlarni rejalashtirishni, ya'ni reja tuzishni va bajarishni biladi.

-kitob bilan ishlash bosqichlarini uni tinglash bibliografiya tuzish, konspekt qilishni biladi:

-o`qish va ish joyini tashkil etishni aqliy mehnat gigienasi talablariga rioya etishni biladi.

-o`z-o`zini tarbiyalashni metod va vositalarini biladi va amalda qo`llay oladi.

Jihozlash:

Mavzuga oid suratlar kitoblar, plakatlar.

Mustaqil ta'lim-universitet kutubxonasi xodimlari bilan birgalikda kitoblarni qidirish, tanlash, bibliografiya tuzish. Universitet strukturasi, uning faoliyati, mavzuli va sistemali kataloglar bilan tanishish va ishlashga o'rgatish.

ADABIYOTLAR:

1. Amur Temur o'g'itlari. T-Navro'z 1992 yil.
2. Abdulla Avloniy-«Turkiy guliston yoxud axloq» T- o'qituvchi 1992 yil.
3. Gonobolin D. N: «O'qituvchi haqida qissa» T-o'qituvchi 1970 yil.
4. Ma'naviyat darslari. (Tuzuvchi S. Nishonova) T-o'qituvchi 1994 yil.
5. Mirzakalon Ismoilij: «Inson xusni axloq odob haqidagi suhbatlar». T 1989 yil.
6. Pedagogika (A. Minavvarovning umumiy taxriri ostida) T- o'qituvchi 1996 yil.
7. Xikmatnoma. T-Cho'lpon-1992 yil.
8. Universitetning ichki tartib qoidalari to'g'risida nizom.

Mustaqil ishlashni ilmiy tashkil etish va aqliy mehnat gigienasi hamda madaniyati har biringizdan maqsad sari intilishni talab etadi.

Shuning uchun ham sizning oldingizda darhol oliy o'quv yurtidagi kundalik hayotni qay tarzda tashkil etish muammosi ko'ndalang bo'lib turadi. Ba'zi birinchi kurs talabalari o'rganilayotgan materiallarni yaxshi o'zlashtirish uchun vaqt zichligini, normal dam ololmasligidan shikoyat qiladilar. Lekin bunday xol o'z vaqtini to'g'ri taqsimlay olmagan, har bir daqiqasini qadriga etmagan talabalardagina sodir bo'ladi. Shunga ko'ra mustaqil ishlashda o'quv materiallarini to'liq o'zlashtirish uchun kun tartibiga qattiq rioya qilgan xolda ish boshlash to'g'ri va maqsadga muvofiqdir. Kun tartibini optimal darajada tuzish uchun quyidagicha ish yuritish maqsadga muvofiqdir. Bir sutkani bir qancha zaruriy ulushlarga bo'lishdan iborat: Bunta ishlash, ovqatlanish, badan tarbiyasi, dam olish, mustaqil chiqarish kabilar kiradi.

Kun tartibi tuzishdan maqsad har bir talabaning ma'lum tartibda ish olib borishga, har bir ishni muddatida bajarishga o'rgatishdan iboratdir. Lekin kun tartibini har bir kishi o'zining shaxsiy fiziologik imkoniyatlarigagina emas, balki umuminsoniy qonun qoidalariga qarab tuzish mumkin. Talabalik hayotining tajribasi shuni ko'rsatadiki, yaxshi o'qish uchun har bir talaba olti soat darsdan so'ng 4-5 soat mustaqil ishlash kerak.

Ish rejasini tuzishda uxlash sutkasiga (7-8 soat), muntazam ovqatlanish (3-4marta), dam olish (Faol va sust) uchun etarli vaqt ajratish kerak. Bazi yoshlarda o'z kuchi va imkoniyatiga xaddan tashqari ishonib yuborish mayli ko'zga tashlanadi, ya'ni o'z vaqtida uxlamay, ovqatlanmay ichki imkoniyatlar xisobiga harakatlar qiladi, biroq bu uzoqqa bormaydi. Chunki inson resurslari cheksiz emas, yoshlikda bunday imkoniyatlar katta bo'ladi. Vaqt o'tgach sekin—asta quvvatsizlik sezila boshlaydi. Agar miyaga dam bermay qattiq mehnat qilaversangiz u vaqtda sizning asab xujayralaringiz va butun asab sistemangiz charchab qoladi. Bunday odamga oddiy gaplar ham salbiy ta'sir etadigan bo'lib qoladi. Bunday vaqtda har qanday ishni to'xtatish, miyaga dam berish kerak bo'ladi. Umumiy madaniy usish va dam olishni ham esdan chiqarmaslik kerak. Teartr, kino, she'rxonlik, kitob mutoalasi, istiroxat bog'larida sayr qilish, tabiat manzaralaridan baxra olish, bularning hammasi unumli mehnat qilishda ajoyib yordam beruvchi

omillardir.

Chunki bu tadbirlar asarni etarli darajada ta'minlashga yordam beradi. Kishi asosan, uxlash natijasida mustaqil hordiq chiqaradi, kuch to'playdi, tana harakatini to'la ravishda qayta tiklaydi. Uyqu mezonlari kishilarning yoshiga qarab belgilanadi. Oliy maktabda o'qiydigan talaba 7-8 soat uxlashi kerak.

Har bir kishi o'zining ish rejasiga ega bo'lishi kerak. Shaxsiy ish rejasi o'quv grafigida belgilangan topshiriqlar, qisqacha ma'ruza, tajriba ishlari, turli o'quv mashg'ulotlarini, shuningdek universitetda o'tkaziladigan ma'naviy, ma'rifiy tadbirlar: majlislar, ko'riklar, musobaqalar, kechalar, madaniy sayrlar, sport marosimlari va shunga o'xshash boshqa marosim tadbirlarning muddatlari xisobga olinadi.

O'quv mehnati uchun ajratilgan 6 ish kunining hammasi bir xilda maxsuldor bo'lmaydi. Bajariladigan ishlar shunga muvofiq taqsimlanishi va rejalashtirilishi kerak. Buni quyidagicha amalga oshirish mumkin. Dushanba ko'nikish kuni xisoblanadi, bu kunga katta aqliy mehnat talab qilmaydigan uncha murakkab bo'lmagan ishlarni rejalashtirish mumkin. Chorshanba va payshanba kunlari sermaxsul kunlar xisoblanadi. Shu kunlarga eng qiyin, eng og'ir ishlarni mo'njallash kerak. Juma va shanbada ma'lum darajada kishining charchaganligi sezilib qoladi. Bu kunlarga tuziladigan rejalar ko'proq jamoat ishlari bilan shug'ullanish umumta'lim tayyorgarligiga vaqt ajratishdan iborat bo'lgani yaxshi. Yakshanba kuni yaxshilab dam olish va jismoniy va xo'jalik ishlari bilan mashg'ul bo'lish tavsiya etiladi. Ish rejasi tuzayotganda sport bilan shug'ullanishga vaqt ajratish kerak, chunki psixologlar vrachlarning aytishicha sport bilan shug'ullanadigan kishining mehnat faoliyati unumli va aniqroq bo'ladi, darsni o'zlashtirish darajasi ortadi.

Aniq rejalashtirilgan ish uning bajarilishini kuzatib borish sizdan tashkilotchilik qobiliyatini uyg'otadi, iroda, sabr-matонат, saramjon-sarishtali va boshqa ajoyib fazilatlarni tug'diradi. Har bir talaba kitob ustida ishlash bosqichlari bilan tanishgan bo'lishi va ularga amal qilishi kerak, chunki kitob o'qimay turib, bilimni va hunarni puxta egallab bo'lmaydi. Talabalik hayotiga to'la kirishish uchun darslik va o'quv qo'llanmalaridan foydalanish yo'llarini, uning metodikasining bilib va o'zlashtirib olishi lozim. Kitob ustida ishlash bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ularni muximlari quyidagilardan iborat.

Kitob bilan ishlashni birinchi bosqichida-adabiyotlar tanlanadi, zaruriy kitoblar jamlanadi. Talabalarga har bir fan yuzasidan tuzilgan o'quv dasturida ko'rsatilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati hamda har bir o'qituvchining u yoki bu masala yuzasidan chop etilgan yangi asarlarni o'qish lozimligi haqidagi ko'rsatmalari bu masalani xal etishda yaqindan yordam beradi. Shu bilan birga, har bir talaba o'zini qiziqtirayotgan masalarga ta'luqli adabiyotlarni mustaqil ravishda topishga odatlanishi kerak. Adabiyotlarni mustaqil ravishda to'plash uchun quyidagilarni puxta egallab olishlari tavsiya etiladi.

Bibliografiya kitoblari aniq xisobga oladi, matbuotda e'lon qilgan asarlarni guruxlarga ajratadi, tavsif qiladi. Bibliografiyani tuzishdan maqsad, kitobxonlarga chop qilingan asarlarni ma'lum qilish, zarur kitobni kidirib topishda unga komaklashish. Buning uchun ko'rsatkichlar, ro'yxatlar, kataloglar tuziladi, sharxlar beriladi va xulosa chiqariladi. Ularda nashr qilingan asrlar ro'yxati beriladi. Kitob ustida ishlashning ikkinchi bosqichida kitobni o'rganishga va taxlil qilishga kirishiladi. Bu bosqich ham

o'z tartib va qoidasiga ega. Kitobning u yok bu yog'ini varaqlab ko'riladi. Oldin avtor nomi, kitobni qanday atalishi, qaerda va qachon nashr etilganligi bilan tanishib chiqasiz. Titul varoq bilan tanishib chiqqandan keyin kitobni mundarijasini sinchiklab o'rganish zarur. Chunki mundarijada kitobning rejasi, qisqacha mazmuni aks etgan bo'ladi. Titul varog'ini orqasida annatotsiyani (kitobning qisqacha mazmuni) birinchi galda o'qib chiqish kerak. Kitobni bir marta ko'zdan kechirib chiqqaninggizdan so'ngina uni sinchiklab va jiddiy o'qishga kirishish lozim. Kitob ustida ishlashning uchinchi bosqichda o'qilgan adabiyotlarning mazmuni qisqacha yozib boriladi. Kitobdan ko'chirma olib vaqtida quyidagi qoidaga amal qiling: katta ko'chirmalarga berilib ketmang, ko'chirmaga o'zgartirish kiritsangiz, uni qayd eting, qisqartirib ko'chirma olsangiz, tashlab ketgan joyingizni uch nuqta bilan ko'rsating, ko'chirmalarni qo'shtirnoq ichiga oling, vergul, tire va- uch nuqtalardan foydalaning, ko'chirma olingan manbaani qayd eting (kitob avtori, asarning nomi, qachon va qaerdan chiqqanligi).

Matn-yozuvning eng muxim shakli matndir. Matn-bu o'rganiliyotgan materiallning qisqacha, yaxlit mazmuni bo'lib, u sarlavxa va kichik sarlavxalargacha bo'linadi. Matn turli ijodiy jarayon bo'lib, kishining mantiqiy qobiliyati va nutq madaniyatini o'stiradi. Talabalarga bir necha manbalar bo'yicha matn yozishga to'g'ri keladi. Ular ko'pincha, kitobdan butun-butun saxifalarni sidirgasiga ko'chirib yozadilar va so'ngra ularni o'qishda o'zlari ham chalkashib ketadilar. Vaqtni tejash maqsadida so'zlarni ba'zi vaqtda esa butun bir jumlaning qisqartirib yozishga harakat qilish kerak. Matn yozish qisqa lo'nda bulsin. Bunda grafiklar, sxemalar, diogrammalardan foydalangan ma'qul. Matn aniq va tartibli bo'lishi lozim. Uni faqat ruchka bilan yozish kerak. Daftarning bir tomonidan joy qoldirib yozish kerak. Matn yozish davomida kitobning saxifasi, mundarija, o'z fikr muloxazalaringizni, e'tirozingizni, matn yozish vaqtida tug'ilgan fikrlarni tartib bilan yozing. Shundan so'ng kitobni tasvirlang: muallif nomi va familiyasi, kitobning nomi, qachon, qaerda chop etilganligi iloji boricha ko'proq material sig'dirishga harakat qiling, lekin tekstni tushunarli bo'lishiga zarar etmasin. Bu diqqatni bir joyga to'plash va materiallarni yodda yaxshi saqlab qolish uchun yordam beradi. Matn yozishda 8-10 betlik materiallardan 2-3 bet yozib olish etarlidir.

Matn olish fikrni o'stiradi, uni sermazmun qiladi. Nutq madaniyati, uslub va lug'atni takommilashtiradi, eng muximi ana shu fazilatlarni mujassamlashtirishda matn tuzishning o'zi katta omildir. Chunki bunda fikr to'g'ri, aniq tuziladi, material muloxaza qilanadi. To'g'ri matn yozish avvaliga bir muncha qiyin va murakkab xisoblanadi. Lekin bundan cho'chimaslik kerak. Muntazam ravishda foydalanish malaka xosil qiladi. Qisqacha ma'ruza mushtarak mavzu bilan o'zaro bog'liq bo'lgan bir yoki bir necha ishning mazmunini uyg'unlashtirib qayta xikoya qilib berishdir. Qisqacha ma'ruza uchun 10-12 betlik materialdan yarim yoki bir saxifa xajmida yozib olish etarlidir.

Tezislar—bu kitob yoki maqolaga muxim fikrlarni mustaqil to'plangan faktik materiallarni keltirmasdan qisqa va aniq tariflashdir. Tezis rejaga muvofiq xolda savollarga javob tariqasida tuziladi. Tezis rejaga qaraganda manbaaning mazmunini mufassalroq bayon etadi.

Tezis turli ancha mushkul ish bo'lishiga qaramay, o'rganilayotgan masalarning eng muxim nuqtalariga e'tiborni qarata bilish, muxtasar uslub bo'lishiga orgatadi. Tezislarni ma'ruzadan ham qisqaroq, bo'lishi lozim. Shunga ko'ra 10-15 betdan chorak yoki yarim

bet tezis-- olinsa bas.

Qisqa yozuv-bu kitob maqolalarining mazmunini oddiy ta'riflash, bayon qilish va ba'zida uni baxolash demakdir. Qisqa yozuvning o'ziga xosligi shundan iboratki, u o'qilgan tekstning mazmunini juda jiddiy o'ylab yozishni talab etadi. Uni o'z so'zingiz dilan lo'nda qilib tuzishingiz kerak. Qisqa yozuv odatda chorak yoki undan ham kamroq qog'ozda bo'ladi.

Har bir soxada bo'lgani kabi aqliy mehnat borasida ham ishni ilmiy asosida to'g'ri tashkil etish uning madaniyatini yuqori darajaga ko'tarish, muxim ahamiyatga egadir. Aqliy mehnatni to'g'ri tashkil etish, har bir kishining o'z kun tartibini o'sтира olishga hamda aqliy mehnat gigienasiga to'la rioya qilishga bog'liq. Ishni doim aniq belgilangan joyda boshlash va davom ettirish tavsiya etiladi. Eng maquli kutubxona, o'z xonasi va tajriba markazlarida ishlashdir. Bu uning unumdorligiga ijobiy ta'sir etadiyu. Ish joyiga o'tirgach fikrni faqat bir nuqtaga yo'naltirish kerak.

Gigiena ish joyini to'g'ri tashkil etishni talab etadi. Chiroq nuri chap tomondan tushib turishi kerak. Kerakli kitob, qog'ozlar ruchkalar aniq belgilangan joyda turishi kerak. Aqliy mehnatning hamma soatlari ham bir xil unumli bo'lmaydi. Ish kuning so'nggi kunlari kam maxsul ekanligi hammaga ayon. Mutaxassislarning aytishicha ish kunining 3-4 soatlari eng sermaxsul va samarali bo'ladi.

Xullas oliy maktabda muvoffaqiyatli o'qish va mazmunli va maroqli hayot kechirish uchun quyidagilarni bajarish kerak.

1. Kundalik reja, ovqatlanish, mehnat rejimi, ortiqcha charchashga yo'l qo'ymaslik bilan birga, bo'shashib qolish ishning og'irligi va har xilligidan dovdirab, ruxiy tushkunlikka ham berilmasligi kerak.

2. Ishni reja bilan olib borish. Vazifalar qancha murakkab bo'lsa vaqtzni shunchalik kat'iy rejalatirishi kerak.

3. Aqliy mehnat gigienasi talablariga rioya qilish kerak.

4. Sport bilan shug'ullanish orqali organizmni mustaxkamlash va chiniqtirish.

Oliy maktabning asosiy vazifalaridan biri talabalardan yuqori malakali, yuqori madaniyatli mutaxassislar tayyorlashdir. Yuqori malakali deganda, faqat o'z ixtisosi bo'yicha bilimli malakali, uddabiron kishigina emas, balki har qandan joyda ham yuqori madaniyat namunasini ko'rsata oladigan «Nafosat ikli mi» yaratadigan va amaliy hayotda doimiy ravishda namuna bo'la oladigan kishi nazarda tutiladi. Bundan sifatlar talabalik davrida do'stlik, hamjixatlik, o'zaro yordam, a'lo o'qish, tufayli xosil bo'ladi. Talabani har birida yaxshi kayfiyat va mehnatga muxabbat tug'dira olish qobiliyati ma'ruza va mashg'ulotlar paytida, sinov va yakuniy nazoratlarga tayyorlanishga xonalardan foydalanishlarga shaqllanib, mustaxkamlanib boriladi. Bu esa yosh mutaxassislarni mustaqil ish faoliyatida ajoyib natijalar berishi tabiiydir.


Aslini olganda axloqning ham, go'zallikning ham asosiy manbai mehnatdir. Ular mehnat jarayonida shakllanadi, kamol topadi va mustaxkamlanadi.

Inson eng avvalo o'z mehnati ishlari va qalbining musaffoligi bilan go'zaldir. Tashki chiroy esa shu xususiyatlar bilan ko'shilsa nimmat kasb etadi. Shaxning jismoniy kamoloti, tashqi qiyofasi, fe'l atvori, uning axloqiy pokligi xalq baxti uchun ongli, ijodi bilan chanbarchas bog'liqdir.

Yurish turish, qiyinish ovqatlanish, salomlashish kabi odob madaniyatiga chiroyli, nafis odobga ega bo'lish va uni saqlab qolishi uchun mumtazam mashq o'z — o'zini

nazorat qilish keraqligini hamma vaqt esda tutish kerak. Odobga, axloqi qoidalarga amal qilib borish, nuqsonlarni o'z vaqtida tuzatish, har bir pedagogning burchidir. Kishi o'zida nafosat xissini tarbiyalash, go'zallikni etarli tushunishi, o'rganish xech qachon ech emas. Talabalik davri har bir talaba hayotida eng ma'suliyatli daer xisoblanadi. Ajoyib talabalik davridan samarali, oqilona foydalanishga harakat qilish har bir kishining burchidir.


Bu davrda ko'proq o'rganishga, bilim olishga va tajriba ortirishga harakat qilish kerak. Aks xolda qimmatli vaqt boy berib qo'yiladi. Chunki bizning mamlakatimizda ma'naviy, axloqiy, poklik va jismoniy kamolotni o'zida mujassamlashtirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Inson yashar ekan, u hamisha takomillashib borishi, bilimini yashirishi, o'z ko'nikma va malakalarini yanada kuchaytirishi kerak. Bu jarayon faqat o'z ustida ishlash orqali amalga oshiriladi. Talabalarni oliy maktabda o'qishi davomida oladigan bilimlari o'tkazadigan amaliyotlari ulardan juda katta tayyorgarlikni, mustaqil ishlashni talab etadi. Bularni hammasini to'liq amalga oshirish uchun talabalar o'zlarining o'quv mehnatlarini to'g'ri tashkil etish bilan bir katorda o'zlarini tarbiyalash, o'zlari ustilarida mustaqil ishlashlari kerak. Shundagina har tomonlama etuk kasb egasi bo'la oladilar. O'z ustida mustaqil ishlash-bu bir maqsadga yo'naltirilganlik, bilimlarni oshirish, o'zida ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, hamda yangi bilim va ko'nikmalarini egallashdir. O'z ustida ishlash-aloxida o'quv muassasida maxsus ta'lim olagan, mustaqil ish jarayonida egallanadigan ta'limdir. O'z ustida ishlashning harakteristikasini quyidagicha belgilash mumkin.



O`qituvchining o`z malakasini muntazam ravishda oshirib oborishda o`z ustida ishlash asosiy omil xisoblanadi. O`z ustida ishlash har bir kishining shaxsiy sharoiti va hayotdagi faoliyatiga bog`liq.

Tajribali kishilar muntazam ravishda o`z bilimlari, ko`nikma va malakalarini takomillashtirib borishlari uchun o`zlariga reja tuzib oladilar.

O`z ustida ishlashni samarasi shaxs tomonidan qo`llaniladigan metodlar v ularni tanlanishiga bog`liq bo`ladi.



O'z ustida mustaqil ishlashning asosiy vazifasi bu mustaqil ravishda rivojlanish va


shaxsning takomillashuvidir.

O`z ustida ishlashning metodlari oliy maktab talabalariga mo`ljallangan metodlar bo`lib, o`quv jarayonida talabalik faoliyatlarida shulardan foydalanish mumkin.

O`z-o`zini tarbiyalash- bu insoning bir maqsadga yo`naltirilgan aktiv faoliyati bo`lib, o`zida yaxshi sifatlarni takomillashtirishdir.

O`z-o`zini tarbiyalash jarayonida bajarilishi quyidagi tizimga bog`liq.

O`Z-O`ZINI TARBIYALASH JARAYONI



O`z-o`zini tarbiyalash muvaffaqiyati asosan shaxsning tanlagan metodi va vositalariga bog`liq. Birinchi o`rinda o`z-o`zini majbur eta olishi kerak.


Oliy maktabda o`z-o`zini tarbiyalash jarasini ko`proq amalga oshiriladi.

1. Pedagogik amaliyot vaqtida har bir talaba oliy maktabda olgan bilimlarini amalda qo`llash vaqtida o`zida yaxshi va yomon sifatlarni anglab, ular ustida ishlaydi. Pedagogik amaliyot talabaga shunday sharoit yaratadi.

2. Talaba o`zi ukiyotgan oliy maktabdagi jamoada uning tasiri ostida o`z-o`zini tarbiyalash mumkin. Chunki jamoa sharoitida bunda juda yaxshi sharoit yaratiladi.

O`z-o`zini tarbiyalash juda ham shaxsiy juda ham nozik bo`lib yoki hamma ham bunda e'tibor berib, o`z-o`zini tarbiyalash bilan shug'ullanavermaydi. Lekin hayotddagi faoliyat jamoadagi hayot, ko`pchilikning ta'siri barchamizni o`z-o`zimizni tarbiyamizga e'tibor berishimizni talab etadi.

Bu borada biz o`z-o`zini tarbiyalashning harakteristikasini bilan tanishishimiz lozim.



Ushbu metodlardan birini tanlab ishlatishni sizlarga o`quv jarayonida bo`sh vaqtlarda o`z-o`zingizni tarbiyalashga yordam beradi.

Mavzu: Bo`lajak o`qituvchilarni tayyorlash tizimida pedagogik amaliyotning roli.

REJA:

1. Pedagogik amaliyotning asosiy vazifasi, mazmuni va ahamiyati.
2. O`qituvchining asosiy pedagogik funksiyasi.
3. Talabaning pedagogik amaliyot vaqtidagi faoliyat yo`nalishi va mazmuni.

MAQSAD:

1. Talabalarga pedagogik oliy o`quv yurtlari o`tkaziladigan amaliyot haqida tushuncha berish
2. Pedagogik amaliyotni o`tkazish tartibi.uning talabalari, ularni talabalar uchun ahamiyati bilan tanishtirish
3. Pedagogik amaliyot vaqtidagi talabalarning faoliyatlarini chuqurroq yoritish va ularda qiziqish uyg`otish.
4. Mustaqil ta'lim-universitetning pedagogika amaliyot xodimlari dilan davra suhbatini uyushtirish .

Jihozlash: Pedagogik amaliyotida bo`lgan talabalarning fikrlari, ifoda etilgan ijodiy insholar, lavxalar ularni o`qib, suhbat munozara o`tkazish.

ADABIYOTLAR:

1. «Barkamol avlod orzusi» T-Sharq 1998 yil.
2. Rajabov N.: «Mutaxassislikka kirish» T-O`qituvchi 1999 yil.
- Pedagogika. (A. Minavvarovning umumiy taxriri ostida) O`qituvchi 1996 yil.
4. Gonobolin D.N. «O`qituvchi haqida qissa» T- O`qituvchi 1975 yil.
- Frolov F.T. «Yosh direktor maktabi» T- O`qituvchi 1991 yil.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to`g`risida» gi qonunlarni amalga oshirish, ta'lim tizimi oliy o`quv yurti hamda maktab isloxotida belgilangan ulkan vazifalarni bajarish talim tarbiya sifatini yaxshilash pedagogik jarayonini boshqarish, va idora qilish, o`quvchilar jamoasi faoliyatini yo`lga qo`yish, va raxbarlik qilish sinfdan tashqari uyushtirish, shu kundagi tarbiya: texnologiyasini amalga oshirish ota-onalar va jamoatchilikni tarbiya ishlariga jalb etish va ular bilan yaqin hamkorlik o`rnata olish o`qituvchi oldiga qo`yilgan asosiy vazifalardir. Bu vazifalarni muvoffaqiyatli xal etish o`qituvchi kadrlar tayyorlashning g`oyaviy, siyosiy, professional darajasini yuqori ko`tarishni talab etadi. Bu xol pedagogik universitet va institutlarda pedagogik amaliyotni kuchaytirish, tubdan yaxshilashni taqazo etadi, hamda oliy maktab faoliyatining asosiy qoidasi bo`lgan o`qishni ishlab chiqarish mehnati bilan amaliyot bilan qo`shni amalga xal etishning qulay imkoniyatining beradi. Zero talaba Bo`lajak kasbining xususiyati bilan ham nazariy ham amaliy tanishishning imkonini beradi. Amaliyot davrida fanlardan olgan nazariy bilimlarga muvofiq maktabda, akademik litseylarda bolalar bog`chasida o`quv tarbiya ishlari bilan bog`liq faoliyati ishtirok etish

tufayli pedagogik ko`nikma va malakalarni egallab boradi.

Pedagogik amaliyotning umumiy vazifasi o`qituvchining asosiy pedagogik funksiyasi bilan tanishishi va uni bajarishi uchun zarur bo`lgan malaka va ko`nikmalarni egallash bilan bog`liqdir.

O`qituvchining asosiy pedagogik funksiyasi ya'ni ixtisosga doir vazifalarga quyidagilarni kiritamiz.

A) O`qituvchining konstruktiv loyixalash bilan bog`liq funksiyasi-o`qituvchidan o`z ishini rejalashtira, o`quv tarbiya ishlarining mazmuni, amalga oshirish yo`llarini va formasini, vaqtini belgilay olish, uning natijasini taxlil eta bilish mumkin bo`lgan qiyinchiliklarni ko`ra bilish.

B) O`qituvchining kommunikativ funksiyasi-o`qituvchidan o`qituvchilar, kasbdoshlar, ota-onalar, raxbarlar bilan pedagogik maqsad muvofiq aloqalar urnata olish, pedagogik odob talablariga og`ishmay amal qilish, suhbatlashayotgan odami bilan ayni xol uchun eng maqbul bo`lgan muloqat formasini topa olish, suhbatdoshning xolatini xususiyatini xisobga olgan xolda uni xumat qilish, imkoniyatini xisoga ola bilish, shaxslar aro munosabatini tartibga sola olish o`z faoliyati va xulqiga tanqidiy baxo bera olish, har bir ishda shaxsiy namuna ko`rsata olish.

V) O`qituvchining tashkilotchilik funksiyasi-buning rejalashtirgan ta'lim tarbiya ishlarini amalga oshirish bilan bog`liq bo`lgan vazifasidan kelib chiqadi, hamda undan turli faoliyatni amalga oshirishning ratsional rejimini ta'minlay olish, o`quvchilar bilan ishlash jarayonida gurux aktivlarini aniqlash, ularni uyushtira olish, o`z-o`zini boshqarishni tashkil eta bilish, uning liderlarini ishga o`rgatish, o`quvchilar bilan turli jamoa va individual ishlarni tashkil eta olish.

G) O`qituvchining turli soxalarga doir axborotlarga ega bo`lishga qaratilgan funksiyasi. Bu undan turli masalalar yuzasidan bilim, malaka va ko`nikmalarga ega bo`lishni va barkamol avlod ni tarbiyalash vazifasini muvoffaqiyatli amalga oshirish maqsadida ulardan foydalana olishni talab etadi. Uning uchun ham o`qituvchi bu ishida tarbiya nazariyasi va metodlaridan, psixologiya va pedagogikaga doir bilimlardan keng foydalana olish ko`nikmasiga ega bo`lishi kerak.

D) O`qituvchining orentatsion pedagogik funksiyasi. O`quvchilarda jamiyatimiz uchun muxim bo`lgan qadriyatlarga nisbatan xurmatni shaqllantirish va yangi mafkura ma'naviy- marifiy e'tiqod ideallariga nisbatan intilishni uyg`otish uchun ularning ichki dunyosini bilish o`quvchilarda ilmiy dunyo qarashini shaqllantirish. Bulardan tashqari o`qituvchi zimmasida o`quvchilarning aqliy qobiliyatlarini va bilishga oid qiziqishini rivojlantirish, ularning ma'naviy, ruxiy, jismoniy kuch qobiliyatini o`quv tarbiya vazifalarini xal qilishga safarbar etish bilan bog`liq funksiya borligini ham inobatga olish kerak. O`quvchilarda turli o`quv ishlarida duch kelishi mumkin bo`lgan kamchiliklarni ko`ra bilishi va ularga yordam uyushtira bilishi O`qitishning bolalar yoshi bilim darajasi qiziqishi, extiyojlariga muvofiq o`quv tarbiya vazifalarini xal qilishga safarbar etish bilan bog`liq funksiya borligini ham inobatga olish kerak. O`quvchilarda turli o`quv ishlarida duch kelishi mumkin kamchiliklarni ko`ra bilishi va ularga yordam uyushtira bilishi O`qitishning bolalar yoshi, bilim darajasi, qiziqishi extiyojlariga muvofiq, o`quv tarbiya metodlarini to`g`ri tanlay olish va ulardan unumli foydalana bilishi kerak.

Ayni vaqtda o`quvchilarning faoliyatini aktivlashtirishning omili bo`lgan

mafkuraviy ong, ishonch, qarash va e'tiqodlarini tarkib topdira bilishi o'quvchilarda o'qishga ijtimoiy foydali ishlarga mehnatga mustaqil bilim olishga, bilishga shaxsiy ma'rifatni ijtimoiy maqsadlarga bo'ysindirishga intilishni shaqllantira olish, ta'lim tarbiya faoliyatining natijalariga ob'ektiv baxo berish kabi pedagogik malaka va ko'nikmalarni egallash ham muximdir.

Bizning xozirgi kunimizda o'qituvchi ijrochigina emas, tadqiqotchi hamdir. Demak, uning funksiyalari orasida ilgor tajribani o'rganish, pedagogik vaziyatlarni taxlil qilish ularda pedagogik va malaka ko'nikmalarini rivojlantirish ham muxim ahamiyatga egadir.

Pedagogika universiteti va institutlarning talabalari o'qituvchi zimmasidagi bu funksiyalarga doir nazariy bilimlarni «O'qituvchilik ihtissosiga kirish», «Pedagogika», «Pedagogika tarixi», «Xususiy metodika», «Umumiy psixologiya», «Yosh va pedagogik psixologiya», «Pedagogik texnologiya», «Pedagogik maxorat asoslari» kabi fanlarni o'rganish orqali egallaydi. Talabalar bu fanlarga doir malaka va ko'nikmalarni pedagogik amliyot davrida egallab boradi. Talabalarning pedagogik amliyotining yo'nalish mazmuni fakultet profiliga, o'quv yiliga muvofiq o'zgarib boradi. Hamda yildan yilga murakkablashib boradi. Amaliyot maktab, akademik litsey va kollej oldiga qo'yilgan talablarga muvofiq bo'lishi bilan birga, auditoriyada o'rganilayotgan nazariy kurslar mazmuni bilan bog'lanishi, hamda har tomonlama ta'lim jarayonini o'rganishga, ikkinchidan talabalar tomonidan o'quvchilarning ma'lum guruxi bilan sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni amalga qaratilishi mumkin. Talabalarning pedagogika amliyoti 4-kursda 14 xafta qilib belgilangan. Pedagogika amliyot davomida har bir talaba o'zining tanlagan kasbiga pedagogik faoliyatiga yaroqliligi, qiziqishi, shu soxadagi tayyorgarligi, o'rganiladi. Amaliyotga raxbarlik qilayotgan o'qituvchi har bir talabani o'zluksiz o'rganish tashkil etayotgan ishlarni kuzatish, o'quvchilar bilan aloqasi, turli vaziyatlarga nisbatan aktivligi va boshqalarga qarab uning mustaqilligi, tashkilotchiligi, ixtisos tayyorgarligi va mas'uliyati, umumiy tayyorgarlik darajasi va kasbiga yaroqliligini aniqlab beradi. Bularni o'quv yili oxirida o'tadigan konfirensiyada e'lon qilib tegishli tavsiyalar beradi.

O'qituvchilar talabalarning pedagogik amliyoti davomidagi faoliyati yo'nalishi va mazmuniga quyidagilar kiradi.

1. O'qituvchi funksiyasi bilan tanishib uning real sharoitida ro'yobga chiqishini hamda maktabdagi ta'lim tarbiya ishlarining xususiyatini o'rganish.

2. Sinf o'quvchilarini o'rganish, o'quvchilar sinf raxbarlari bilan o'rganilayotgan o'quvchi haqida suhbatlashishi, o'quvchini turli sharoitda va vaziyatda kuzatish xujjatlarni o'rganish.

3. Sinf raxbari va o'qituvchining topshirig'iga muvofiq sodda formadagi sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tayyorlashda va o'tkazishda qatnashishi.

4. Pedagogik amliyot davomida o'quvchilar jamoasida mustaqil ishlash. Shu maqsadda o'quvchilar bilan o'yinlar og'zaki muloqatlar, bayram, bilag'onlar, o'tkir zexinlilar konkursi kabilarni tayyorlash devoriy gazeta chiqarish sinf burchagini, fan kabinetini jihozlashda qatnashish.

5. Maktab akademik litsey kasb hunar qollejlaridagi o'quv tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi bilan chuqur tanishish. Predmet o'qituvchisi, sinf raxbari, kabinet mudiri ish mazmuni metodlarini o'rganish.

6. Jamoa va shaxs haqidagi pedagogik psixologik bilimlarga asoslanib, ilmiy tadqiqotning metodlaridan foydalangan xolda sinf jamoasining rivojlanish darajasini o'rganish.

7. Predmet o'qituvchining o'z faniga doir, sinfdan tashqari uyushtiradigan ishlarida qatnashishi.

8. Bolalar jamosida mustaqil ishlar tashkil etish uchun turli tadbirlarni sinf raxbari bilan birgalikda tashkil etish.

4.4. Pedagogik tajriba va ijodkorlik.

REJA:

1. O'qituvchi faoliyatida pedagogik tajriba va ijodkorlikning roli va ahamiyati.

2. Xozirgi zamon talablari asosida o'qituvchining ijodkorlik faoliyatida ta'limning yangi texnologiyalari va metodlarining qo'llanishi.

4. Yangi metodlarda yangi tipdagi darslarni o'tkazishni. O'qituvchining tajribasi va ijodkorlik samarasi.

MAQSAD:

Talabalarga o'qish va ish jarayonida pedagogik tajriba to'plashlari lozimligi va har bir ishga ayniqsa o'qitish va tarbiyalash ishiga ijodiy yondashish, davr talabi ekanligini o'qitirish. Pedagogik tajribani to'plash, unga erishish va ijodkor bo'lishlikning yo'llari bilan tanishtirish.

Natija:

Talaba Bo'lajak o'qituvchi sifatida tajribali va ijodkor bo'lishi uchun ko'p o'qishi, o'rganishi, tajriba ortirishi kerakligini tushunadi va biladi.

-Yangi tipdagi darslar, pedagogik texnologiya, aktiv interaktiv metodlar haqida umumiy tushunchaga ega bo'ladi.

-Yangi tipdagi darslar, metodlarni an'anaviy darslar va metodlardan farq qila oladi.

Jihozlash: Talabalar tomonidan o'tkazilgan ijodiy anketa savol javoblar bo'yicha suhbat, munozara o'qituvchilarni ijodiy darslaridan videofilm lavxalari.

ADABIYOTLAR:

1. Gonobolin D.N «O'qituvchi haqida qissa» T- O'qituvchi 1975 yil.

2. «Ijodkor o'qituvchilar izidan» T-1989 yil.

3. Ma'naviyat darslari (Tuzuvchi S. Nishonova) T- O'qituvchi 1999 yil.

4. Tursunov I. «Yangi pedagogik texnologiya istiqboli», «Xalq so'zi 25. 05. 1999» yil.

5. «Xorijda ta'lim». J. Yo'ldoshev. T-1996 yil.

6. «Sharif Xo'jaev» M Iftixor. T- O'zbekiston 1992 yil.

7. Muxiddinov A.G. «O'quv jarayonida nutq faoliyati» T- o'qituvchi 1995 yil.

O'qituvchilik kasbi xususiyati jixatidan g'oyat dinamikligi (o'zgaruvchanligi) murakkabligi turli tumanligi va faoliyat ob'ektning boshqachaligi bilan boshqa ko'pgina mutaxassisliklardan farq qilishi haqida biz avvalgi suhbatlarimizda gaplashdik. Faoliyat ob'ekti bolalar o'z murakkab, takrorlanmaydigan har xil individual xususiyatlarga va psixik dunyosiga ega bo'lgan jonli kishilardir. Shunday ekan o'qituvchi o'z ishida aniq

ximobga tayangan qandaydir mukammal usul bilan bajariladigan bulmasin, baribir u tayyor andoza foydalana olmaydi. Ko'p xolda mehnatda olidindan ko'rish pedagog ishida muxim narsa, ammo ta'lim mehnatida natijani oldindan bilish ancha murakkab. Boshqa kasbdagi xodimlarga karaganda, o'qituvchiga juda murakkab vazifani yondashgan xolda xal qilishga to'g'ri keladi. Yangi odatdan tashqari sharoitlarda o'qituvchi oldida har qachon yangi kutilmagan masala vujudga kelishi mumkin. Bunday xolat kechitirilmasdan chora ko'rishni talab qiladi. Bu chora ilgari ko'rilgan choralardan bo'lmaslik kerak. Buning uchun o'qituvchida pedagogik tajriba va ijod eta olish ko'nikma malakalari etarli bo'lishi kerak. Uqituvchi o'z ishida birovdan to'la to'kis mukammal maslaxat olishi yoki birovni ish usulini qabul qilib olishi ancha qiyin. O'qituvchining mehnat ob'ekti har tomonlama murakkab va o'zgaruvchanki uning ishi haqidagi ko'rsatmalar va bir spravochnikda bayon etilgan noaniq qoida yoki formulalar bilan ifodalab bo'ladi. O'qituvchiga tashabbuskorlik va ijodkorlik ko'rsatib tarbiyalash va o'qitish masalasini ko'pincha o'zi xal qilishga to'g'ri keladi. O'z ishini fidoiysi bo'lgan o'qituvchi ko'p o'qiydi, boshqalardan qimmatli tajriba o'rganadi. Chunki pedagogik tajriba o'qituvchining o'quv tarbiya ishlari jarayonida egallaydigan bilimi malaka va ko'nikmalar yig'indisidir. Bu o'qituvchi pedagoglik maxoratini asosi va pedagogika fani rivojlanishida boshlang'ich omil xisoblanadi. Ammo o'qituvchi bu o'rgangan yaxshi tajribalardan ko'rko'rona taqlid qilmasdan va ularni mexanik ravishda qabul qilmasdan qayta ishlab o'quvchilarni sinfdagi xususiyatlari xisobga olib nazar e'tiborga olib o'z imkoniyatlari bilan xisoblashishi, o'z ishida yuz beradigan qator sharoitlar ham xisobga olinmog'i lozim. Aksincha tashshabussiz o'qituvchi tayyor retseptni qilmasdan va ularni mexanik ravishda qabul qilmasdan qayta ishlab o'quvchilarni sinfdagi xususiyatlari xisobga olib nazar e'tiboriga olib o'z imkoniyatlari bilan xisoblashishi o'z ishida yuz beradigan qator sharoitlarni ham xisobga olinmog'i lozim. Aksincha tashabbusiz o'qituvchi tayyor retseptini qidiradi. Metot kabinetda boshqa o'qituvchilar reja va ishlangan tayyor darsni ko'chirib oladi. Odatda bunday o'qituvchi o'z mehnatini engillatish uchun bu materialdan foydalanadi va boshqalarning yaxshi ishlarni aniq ko'chiradi. Bunday ish usuli odatda yaxshi natijalar bermaydi.

Xozirgi davr talabi asosida bolalarga ko'p narsa haqida ularni o'zlari o'ylashlari yoki o'qituvchini yordamisiz unitganlarni esga tushirishlarini uqtirish kerak. Bu pedagogik ishlarning barcha usullarida bolalarni O'qitishning eng samarali yo'llarini qidiruvchi katta tashabbus va o'qituvchi zakovatining ijodi yotadi.

Qimmatli tajriba bilan o'z ijodiy muloxazalarni qo'shib olib borilgan mehnat tez kunda yaxshi natijalar beradi. O'qituvchining mehnatining ham agar unda o'qitish metodi hamda tarbiyalash pedagogik fikirlash ilxomlanish bo'lsa ijodiy mehnat deyish mumkin. Ta'lim metodida sodir bo'lgan ijodni xozirgi zamon maktablarining darsini qayta ko'rish yuzasidan olib borilayotgan tajribalari yaqqol ko'rsatib turibdi. O'qituvchining o'quv materialiga qarashi uning taksimlashi dars berish formasini ijod elementlarida deb bilishi kerak. Keyingi yillarda turmushimizning barcha soxalaridagi ijodiy faoliyatda tashabbus ko'rsatishda tajriba to'plashda katta tajribalar ro'y bermoqda. O'quv muassasalarida talimning yangi aktiv metodlari ta'limni yangi texnologiyasi pedagogika fani va o'qituvchilar faoliyatiga kirib kelmoqda. Bu esa keng fikirlovchi o'z ishiga mas'uliyat bilan ijodiy yondoshadigan o'z va chet el tajribalariga ega bo'lgan yangi o'qituvchilarni talab etmoqda. Dars o'qitish sistemasi asosiy zveno

bo'lib qoladi, uni qayta ko'rish, yangilash xozirgi zamon o'qituvchisining asosiy vazifasidir.

Yangi tipdagi dars butun sinfnig ishi bilan boshlanadi: savollarga yozma javoblar olinadi, uyda o'qilgan maqolaning keng rejasi tuziladi, o'rgatilgan qoidaga muvofiq mashq qilinadi, yangi xodisalar ustida kuzatishlar olib boriladi, materiallar bo'yicha mustaqil ish olib boriladi.

Dars turli tuman mustaqil ish bilan mukammal boyitilgan, yangicha ishga tayyorlanish o'qituvchidan juda ko'p mehnat sarflashni talab qiladi. Xozirgi kunda o'qituvchilar eskicha dars o'tish metodlaridan voz kechishlari kerak. Biz zo'r tashabbusni, ixtirochilikni, ijod qilishga moyillikni, jamoa mehnatni uyushtira bilishni, topqirlikni, sinfdagi doim o'zgarib turadigan vaziyatga tez kira bilishni, materialni xayotga bog'lay bilishi kerak. Bunday darsda o'qituvchi har bir o'quvchining nima qilayotganligi, mustaqil ishdan kelib chiqadigan qiyinchilikni qanday kechayotganini ko'rib turishi, unga nima topshirish, nima bilan yordam berish kerakligini bilishi lozim. Bunda o'qituvchi kamdan kam lektor va nazoratchi bo'la oladi, endi esa u birinchi navbatda o'quvchilarning jamoa mehnatining ilxomchisi va tashkilotchisi bo'lib, bunda u barcha ! o'quvchining va aloxida har bir o'quvchining ishini yakunlashda muxim o'rin egallaydi. Bunda tajriba va tashabbus katta rol o'ynaydi.

Yangicha ishlaydigan o'qituvchi, O'qitishda yangi natijalarga erishibgina qolmay, unda zo'r ichki qanoatlanish ham xosil bo'ladi. Shuningdek eski ish usuliga qaraganda u ko'p munosabatlarda o'zini sub'ektiv ravishda; durust xis qiladi. Bundan tashqari dars vaqtida undagi yangi xolat o'qituvchining kayfiyatiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina o'qituvchilar o'quvchilarni tartibga chaqiraverib charchaydilar, o'quvchilarning diqqat bilan o'tirishlarini va o'zlarini yaxshi tutishlarini doimo kuzatish bilan band bo'ladilar. Darsni jiddiy, ijodiy, aktiv ish olib boriladigan bo'lsagina, o'qituvchi kam charchaydi. Yangi dars sistemasida o'quvchilar maksimal nagruzka band bo'ladilar. Shuning uchun intizom haqida masala deyarli yuz bermaydi.

Darsning yangi sistemasi o'quvchilarning bilimiga baho qo'yish va ularning psixologiyani bilib olishi o'qituvchiga engil bo'ladi. Aktiv ish jarayonida o'qituvchi har bir o'quvchining javobini ko'proq eslatadi, faqat uning nima bilganinigina emas balki, uni qanday ishlash va ishga xoxishini ham yaxshi bilib oladi.

Ba'zan ijodda aloxida psixik xalat yuz beradi, uni ilxom deb ataladi. Bu faqat olimlar va yozuvchilarga xos harakterli xususiyat emas, pedagogik ishda ilxom katta rol o'ynaydi. Bu xolat kishining,- qobiliyati, hamda ruxiy kuchini ortishi va zavqlanishida namoyon bo'ladi. O'qituvchi ishdagi ijodiy ko'tarinkilik, o'quvchilarda jonli fikr paydo qiladi. Ularda ijodga qizg'in intilish xosil qiladi.

Agap o'qituvchi umumxalq vazifalari bilan yashasa, shunda turmush faktlari ishonarli bo'lib, o'quvchilarni o'quv materiallarini o'zlashtirishi osongina xal bo'ladi. Ma'lumotlarni talabalarga ko'tarinki ruxda etkazish kerak. Ularni jamiyat foydasiga aktiv faoliyatda bo'lish har bir ishga ijodiy yondashish va katta tajribalarga ega bo'lish xissini tarbiyalaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Barkamol avlod orzusi T — Sharq 1998 yil

2. Pedagogika (A.Munavvarovning umumiy taxriri ostida) t- o`qituvchi 1996 yil
3. Rajabov. N «Mutaxassislikka kirish» t-1991 yil
4. O`qituvchi ixtisosiga kirish kursiga metodik ko`rsatmalar . T- u 1989 yil
5. Yunusov «Yosh o`qituvchilar bilan ishlashni takomillashtirish yo`llari» t-U 1990 yil O`qituvchi.

MUNDARIJA

1. So`zboshi
2. “Mutaxassislikka kirish” fanining maqsadi,si va mazmuni
3. O`zbekiston Respublikasi ta`lim tizimi va turli tipdagi o`quv muassasalari
4. Pegagoglik kasbi va uning jamiyatdagi o`rni
5. Pedagog kasbining pedagogik va psixologik xususiyatlari
6. Pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni
7. Talabaning o`quv mehnat madaniyati
8. Bo`lajak pedagoglarni tayyorlash tizimida pedagogik amaliyotning roli
9. Pedagogik tajriba va ijodkorlik